

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

HISOB VA AUDIT FAKULTETI

“AUDIT” KAFEDRASI

RAXMATOV DOSTON RUSTAMOVICH

**«ICHKI AUDIT XIZMATI ISHINING SAMARADORLIGINI
BAHOLASH»**

5340900 - “Bugalteriya hisobi va audit” - ta'lim yunalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

TOSHKENT - 2013

Mundarija:

Kirish	3
I bob. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA ICHKI AUDIT XIZMATI ISHINING SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	5
1.1. Ichki auditning mohiyati va maqsadi.	5
1.2. Ichki auditning o'ziga xos xususiyatlari.	11
II bob. ICHKI AUDIT XIZMATI ISHINING SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING AMALIY JIXATLARI.....	18
2.1. Aktsionerlik jamiyatlarida ichki audit xizmatini tashkil etish tartibi. .	18
2.2. Ichki auditda qo'llaniladigan auditorlik amallari hamda audit natijalarini rasmiylashtirish va taqdim etish tartibi.....	26
2.3. Aktsiyadorlik jamiyatlarida ichki auditni tashkil qilishning uslubiy jihatlari.	37
III bob. KORXONADA ICHKI AUDIT XIZMATINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH TARTIBI.....	45
3.1. Ichki audit xizmatini takomillashtirish istiqbollari.	45
3.2. Ichki audit xizmatida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. ...	53
Xulosa	62
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	65

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy holati to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishning asosiy quroli bu ichki auditdir. Mamlakatimizda, mustaqil davlat sifatida olib borilayotgan islohatlar o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar texnik va texnologik yangilashni jadallashtirish va uni kulamini kengaytirish o'ziga xos richak vazifasini o'tamoqda. Shu xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ushbu fikrini eslatib o'tish o'rinlidir: «2013 yil va yaqin kelajakka mo'ljallangan dasturimizni amalga oshirishda iqtisodiyotimiz va uning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik yangilashni jadallashtirish va uning ko'lamini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish markaziy o'rin tutishi darkor. Bu borada 2013 yil uchun ishlab chiqilgan va 370 dan ortiq strategik muhim loyihani amalga oshirishni ko'zda tutadigan Investitsiya dasturi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsadlar uchun ajratilayotgan 13 milliard dollarning 75 foizini ichki manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan mablag'lar, qolgan qismini jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar tashkil etadi. Ishlab chiqarish qurilishi uchun mo'ljallanayotgan jami investitsiyalarning qariyb to'rt dan uch qismini yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish uchun yo'naltirishga to'g'ri kelmoqda.

Investitsiya dasturini amalga oshirishda O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tobora muhim o'rin tutmoqda. 2013 yilda faqat Jamg'arma mablag'lari hisobidan qiymati 780 million dollarlik 34 tadan ortiq muhim loyiha, birinchi navbatda, xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda barpo etilayotgan ob'ektlarni moliyalashtirish rejalashtirilmoqda».¹

Korxona ichki auditi nazoratning bir shakli sifatida bozor munosabatlariga asoslangan tizimga mos keladi. Korxonaning turli xalkaro tashkilotlarda faol qatnashishi, jahon iqtisodiyot hamjamiyatiga qo'shilishi jarayonida iqtisodiy

¹I.A.Karimovning "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" T.:«O'zbekiston» 2013 - 22 b

ko'rsatkichlarni xorijiy mezonlarga taqqoslanishi ichki auditning uslubiy tamoyillarini jahon amaliyotida qabul qilingan standartlar talabiga javob berishini ta'minlashni talab etmoqda.

Mavzuning nazariy- amaliy ahamiyati. Iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida korxonaning hisobotni ichki audit yordamida tasdiqlashning roli va ahamiyati ham oshadi, bu axborotlar investitsiya va moliyaviy faoliyatda turli bitimlar tuzish chog'ida boshqaruvga doir qarorlar qabul qilish uchun ham asos bo'ladi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda uning infratuzilmalaridan biri bo'lgan korxonalarda ichki auditorlik faoliyatini mujassamlashtirishda ichki audit faoliyatini kompyuterlashtirish ishlarini ishlab chiqish va uni tadbiq qilish muhim ahamiyatga ega va bu masalalar bilan Respublikamizdagi va xorijiy etuk olimlar shug'ullanishmoqda.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari. Ichki auditni tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish mavzuning maqsadini tashkil qiladi. Vazifalar quyidagi iborat:

- ichki auditni tashkil qilishning ahamiyati va zarurligini tadqiq qilish;
- ichki auditni tashkil etishning nazariy va huquqiy asoslarini yoritib berish;
- ichki auditning hisoboti va ishchi dasturini tuzishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish;
- aktsiyadorlik jamiyatlarida ichki auditni tashkil qilishning uslubiy jihatlarini tadqiq qilish;
- ichki nazorat va ichki auditni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish.

Tadqiqot predmeti va ob'ekti. Mazkur BMIning predmeti respublikamiz xo'jalik yurituvchi sub'ektlarida ichki auditni tashkil etishning uslubiy asoslari o'rganish hamda ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar berish. Ichki audit tizimi «Olmaliq TMK» OAJ misolida yoritildi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. BMI kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ichki audit xizmati ishining samaradorligini baholashning nazariy asoslari

1.1. Ichki auditning mohiyati va maqsadi

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mulk shaklidan qat'iy nazar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning raxbar xodimlari va xizmatchilari yuqori saviyadagi kasbiy tayyorgarlikka, iqtisodiy-xuquqiy bilimga, tajribaga ega bo'lishlar lozim. Bugungi kunda Respublikamizda esa yuqoridagi omillar etarli darajada deb bo'lmaydi. Bu masalani kengroq tahlil qiladigan bo'lsak, bizga ma'lumki Respublikamizda mustaqillikka erishganimizdan beri ko'pgina iqtisodiy-ijtimoiy islohatlar olib borildi va bugungi kunda ular chuqurlashtirilmokda. Bu islohatlar natijasida bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos xuquqiy bazani va iqtisodiyotimizning barcha soxalarida samarali faoliyat ko'rsatish uchun anchagina shart sharoitlar yaratildi. Bundan tashqari iqtisodiyotimizdagi soxalarni, xususiyl mulkchilikni, tadbirkorlikni umuman xo'jalik sub'ektlarini erkin rivojlanishini ta'minlash, ularning huquqlarini himoya qilish maqsadlarida, nazorat qiluvchi organlarning ular faoliyatiga asossiz aralashishlarini oldini olish, har xil tekshiruvlarni kamaytirish, xaqidagi me'yoriyl xkujjatlar qabul qilindi.

Korxonalar ichki auditi tizimining asosiy vazifasi –maxsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va tan narxini pasaytirish yo'llarini izlab topishdir. Ichki auditor yana korxonaning mexnat unumdorligini va samaradorligini oshirish bo'yicha maslaxatlar berishi kerak. Iqtisodiy tizimning buzilishini tekshirish ko'p mehnat talab qiladigan auditdir. Bunda korxona moliyaviyl-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlari o'rganiladi. Ichki auditor korxonada u yoki bu rivojlanish yo'nalishini ma'qullashi yoki ma'qullamasligi mumkin. Ichki audit maqsadi korxona xodimlarining qonun xujjatlariga, me'yoriyl xujjatlarga va kasb faoliyati standartlariga rioya etishini nazorat qilish, tamonlar manfaatlari o'rtasidagi nizolarni bartaraf etish, korxona amalga oshirayotgan operatsiyalarning

xususiyatlari va ko'lamlariga mos ishonchlilikni ta'minlash xamda korxona faoliyatidagi xatarlarni kamaytirish yo'llaridan iboratdir.

Korxonalar faoliyatini samarali boshkarish uchun kabul kilinadigan konun va karorlarni shakllanishida zarur axborotning mavjudligi, xisobotlarda ma'lumotlarning aks ettirilish darajasi xamda xodimlar va boshkaruvchilarning ish sifatlari bevosita ta'sir kursatuvchi omillardir. Bu omillarning ijobiy ta'siriga erishish uchun korxonada ichki nazorat tizimini yaratish lozimdir. Ichki nazorat tizimi tushunchasi XVIII asr boshlarida paydo bulib evolyutsion rivojlanib kelmokda. Korxona faoliyatida tizim sifatida XX asr boshlarida shakllanib, kuyidagi uch elementdan tarkib topadi: xukuk va majburiyatlarning taksimlanishi, xodimlar rotatsiyasi (urin almashinuvi) xamda xisob ma'lumotlaridan foydalanish va taxlil etish.

Ichki nazorat korxona faoliyati maksadlariga erishish jarayonidan iborat bulib, boshkuruvchilarning faoliyatni tashkil etish, rivojlantirish, monitoringini olib borish kaaba xarakatlari natijasi ularok vujudga keladi. Buning uchun korxona boshkaruvi birinchidan, korxona maksadini belgilab, vazifalarni aniklashi xamda mutonosib ravishda korxona tuzilmasini shakllantirishi lozim. Ikkinchidan esa xujjatlashtirish tizimining ishlashi va xisobotlar tayyorlanishini ta'minlashi, xukuk va majburiyatlarning taksimlanishi va belgilangan maksadlar amalga oshirilishining monitoringini olib borishni samarali tashkil etishi zarur.

Ichki nazorat nazoratdan farki sifatida uning korxona nazoratini ichki tashkil etilishini xamda tashki nazorat tashkilotlarining konunchilikga amal kilinishi kabi xususiyatini kursatishimiz mumkin. Bunda ichki nazorat boshkaruv nazorati bilan uygunlashish xolati namoyon buladi. Menimcha, ichki nazorat tizimini tashkil etishdan maksad, faoliyatda konunchilikdan ogishishlarni tulik oldini olish va xatolar xamda ishning besamara tashkil etilishini kafolatlash emas balki faoliyat samaradorligini ta'minlash uchun zarurdir.

Ichki audit - korxona boshqaruvining ijro etuvchi organi va tarkibiy bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, ta'sis

hujjatlariga va ichki hujjatlarga rioya qilinishini tekshirish va monitoring olib borish yo'li bilan ular ishini nazorat qilish va baholash, ma'lumotlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirilishining to'liqliligi va ishonchliligini ta'minlash, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tamoillari, aktivlarning saqlanishi hamda korporativ boshqarish printsiplari joriy etilishi bo'yicha korxona tarkibiy bo'linmasining (ichki audit xizmati) faoliyati xisoblanadi.

G'arb mamlakatlarida ichki audit XX asr boshlarida paydo bulib Ikkinchi jaxon urushidan sung korxonalarning ishlab chikarish xajmi keskin oshishi va detsentralizatsiyasi davrida rivojlanish boskichiga erishdi. 1941 yilda AKSh da ichki auditorlar Instituti tashkil etilib, faoliyatning xukukiy asosi va standartlarni yaratilildi. Xozirda bu Institut dunyoning 120 ortik mamlakatlarida mavjud va 72 ming a'zoga egadir. Jaxonda faoliyati ichki audit bilan boglik milliondan oshiq mutaxassislar mavjud.

Karxona ichki auditi:

- o'z aktivlarining but saqlanishini:
- xisobot ma'lumotlarining aniqligi va ishonchliligini:
- operatsiyalarning maksimal samaradorligini:
- xisob soxasidagi siyosatga rioya etilishini ta'minlaydigan usul va choralarni tashkil qilish va muvofiqlashtirish rejasidan iborat bulmog'i kerak.

Ichki audit tizimi amaliyotda quyidagilarni qamrab oladi:

- boshqarish siyosati va tadbirlari:
- majburiyat va vakolatlarni taqsimlash:
- tekshirish tadbirlari:
- kundalik ishlarni nazorat qilish va ularni xisobga olib borish:
- xarajatlarni nazorat qilish.

Ichki audit tizimini doimo nazorat qilib borish va uni takomillashtirish raxbarlar zimmasida buladi. Nazorat tadbirlari uchun javobgar bulgan xodimlar bevosita raxbarlarga xisob berishlari kerak. Xar bir tarkibiy bulinma operatsiyalar

ustidan ichki nazoratni amalga oshirishi kerak. Bunday nazorat ma'sul ijrochilardan tortib, to bo'linma boshlig'igacha- barcha xodimlar uchun ta'luqli bo'ladi.

Ichki audit - ichki nazorat foydalanadigan usullaridan biridir. Ichki nazorat tizimi tashkilot rahbarlari tomonidan tashkil qilinadi. Ichki nazoratni boshqa nazorat turlaridan birinchi asosiy farqi, bu mustaqil audit, mustaqil auditor tomonidan utkazilib, nazorat ishlarini turi va formasi auditor tomonidan aniqlab olinadi.

Ichki nazorat - bu tashkilot rahbari tomonidan xo'jalik muomalalarini yuritishda barcha xodimlarga belgilangan vazifalarni samarali bajarishlari maqsadida tashkil qilingan va tadbqiq etiladigan o'lchov tizimidir. Ichki nazorat xo'jalik muomalalarini qonuniyligi va uni tashkilot uchun iqtisodiy maqsadga muvofiqliligini aniqlaydi.

Tashkilotda ichki nazorat tizimini tashkil qilish maqsadi bo'lib:

- tashkilot faoliyatini tartibli va samarali olib borish;
- tashkilotning har-bir xodimi rahbarlar siyosatiga amal qilishini ta'minlash;
- tashkilot mulkini butunligini ta'minlash.

Yuqorida keltirilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun kerakli shart-sharoitlar, buxgalteriya hisobi tizimi va ichki nazorat tizimi bilan kelishishdir, chunki ikki yoqlama yozuv tizimi, har qanday buxgalteriya hisobi tizimi tarkibida yotadi, xo'jalik muomalalarini hisobga olish va amalga oshiriladigan nazoratni ta'minlash tartibini aniqlashdir.


Ichki nazorat tizimini tashkil qilish maqsadini amalga oshirish uchun alohida topshiriq lozim bo'ladi. Tashkilot rahbari ichki nazorat tizimini tashkil qilish va etarli darajada ushlab turishi uchun quyidagilarni amalga oshirishi zarur:

- buxgalteriya hisobotida nimaiki kiritilishi lozim bo'lsa barchasi kiritilishi kerak, shu bilan birga to'g'ri aniqlangan, klassifikatsiyalangan, to'g'ri baholangan va aniq yuritilgan;

- buxgalteriya hisoboti tashkilot to'g'risida to'laligicha to'g'ri va obektiv baho berishi kerak;
- tashkilot mablag'i qonunsiz o'zlashtirilgan yoki samarasiz foydalanilgan bo'lmasligi kerak;
- har qanday chetga og'ishlar o'z vaqtida aniqlanishi, tahlil kilinishi va ayibdorlar javobgarlikka tortilishi kerak;
- ichki hisobot tezlik bilan kerakli shaxslarga etkazilishi, ma'suliyati yuklatilgan shaxslar boshqaruv qarorini qabul qilishi kerak.

Ichki audit etarli darajada bo'lishiga erishishning asosiy mezonlari quyidagilardir:

- tashkiliy tuzulishning samaraliligi:
- amalga oshirilayotgan tadbirlarning buxgalteriya siyosatiga mos bo'lishi:
- aktivlar saqlanishiga qaratilgan tadbirlarning majburiyligi:
- samarali ichki-audit dasturi.



1- chizma. Ichki audit xizmatining tavsiflanishi²

Ma'lumki ichki audit Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan mustaqil va ob'ektiv kafolatlar hamda maslahatlar berish faoliyati hisoblanadi.

² Tulaxodjaeva M.M. «Audit» (darslik). Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. Iqtisodiyot, 2010 y. – 456-b.

Shuning uchun ham ichki audit nazorat va korporativ boshqaruvning tizimlashtirilgan usullaridan foydalangan holda tashkilot oldiga qo'yilgan maqsadga erishishga yordam beradi. Mustaqillik- ushbu holatda ichki audit tashkiliy mazmunga ega bo'lib, bunda kompaniyaning ijro organiga ichki audit xizmatining bo'ysinish darajasi bilan aniqlanadi.

Ob'ektivlik esa – ichki auditor korxonaning faoliyatini baholash va qarorlar qabul qilishda xolisligi tushuniladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini rivojlantirish, ta'kidlab o'tish kerakki, korxona ishidagi kamchiliklar va tavakkalchilikni ko'ra bilish va baholash, tizim va jarayonlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar berish hisoblanadi.

Kafolat va maslahatlar berish - Ichki auditning mohiyati mijozlarga kafolat va maslahatlar berishda ko'rinadi.

Ichki audit xizmatining maqsadi tashqi auditorlik faoliyatidan farqli o'laroq, ular korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyatini doimiy nazorat qilish maqsadida oldiga bir qancha maqsadlarni qo'yadi:

- Aktivlar holatining nazorati;
- Ichki tizimdagi nazorat jarayonlarini tasdiqlash;
- Ichki nazorat va axborot qayta ishlovi tizimining samarali ishlovining tahlili;
- Boshqaruvning axborot tizimi tomonidan beriladigan ma'lumotlarinnig sifatlilikini baholash.

Korxonada ichki audit samarali bo'lishi uchun korxona menejmenti saviyasini oshirish maqsadga muvofiqdir. U o'tish davri iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan xorijiy mamlakatlar mutaxassislari taklif qilingan metodik printsiplar, ilmiy yutuqlarni tahlil qilishga hamda ularni muvafiqiyatli ishlab chiqarishda qatnashgan mutaxassislarning amaliy tajribasiga asoslangan bo'ladi. Ana shu printsipga muvofiq ish tutilsa, bu korxonada ichki audit tizimi korxona yuqori raxbariyatining manfaatlarini ko'zlagan va boshqaruv vazifalarini samarali amalga oshirishni vujudga keltirgan bo'ladi

1.2. Ichki auditning o'ziga xos xususiyatlari

Ichki audit xizmati ham auditorlik faoliyatining bir qismi bo'lib, uning faoliyat yuritishi tashqi auditorlik faoliyatidan bir qancha farq qiladi. Ichki audit xizmati aynan aktsiyadorlik jamiyatlarida faoliyat yuritishi qimmatli qog'ozlar bozorining ham rivojlanishiga asos bo'ladi. Umuman olganda ichki auditorlar o'zlari ishlaydigan korxonalar faoliyatini tekshiradi. Ular qoidaga ko'ra, korxonaning kuzatuv kengashi tarkibiga kiradilar.

Amaliy faoliyatda ichki auditorlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, shuningdek, ta'sis hujjatlari, korxonalar bo'yicha buyruqlar va lavozim yo'riqnomalariga amal qilishi lozim.

Tashqi va ichki nazorat o'rtasidagi bog'liqlik korxonaning qanday faoliyat ko'rsatishiga bog'liq. Ya'ni bazi korxonalar umuman tashqi nazoratdan o'tmasligi mumkin, masalan agar ular majburiy tashqi nazorat o'tkazilishi shart bo'lmasa va moliyaviy - sanoat guruxi qatnashchisi hisoblanmasa.

Tashqi va ichki nazorat bir - biriga bog'liqligi nazoratni yagona tizim ekanligini bildiradi. Shu bilan birga tashqi va ichki nazorat o'rtasida quyidagi farqlar mavjud.

1. Nazoratni majburiyligi. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuniga asosan tashkilotlar yillik buxgalteriya hisoboti bilan auditorlik xulosasi topshirilishi kerak.

Qolgan holatlarda auditorlik tekshiruvlari tashqi nazorat bo'lganligi uchun ixtiyoriydir. Buni korxona rahbarining qaroriga asosan o'tkaziladi.

Ichki nazorat har bir korxona uchun uni tashkiliy - xuquqiy formasiga, mulkchiligidan qat'iy nazar, hajmiga va tarmoqqa bo'ysinishidan qat'iy nazar majburiy.

2. Nazoratni tashkil kilish maksadi. Tashqi auditni maqsadi - tashkilotning buxgalteriya hisobini, xisobot ko'rsatkichlarini tashqi foydalanuvchilar uchun ishonchligini tasdiqlash. Auditor tekshirishni yakunlab

auditorlik xulosasini bersa maqsadga erishilgan bo'ladi. Ichki nazoratni maqsadi - korxonaning barcha xodimlarini o'zlariga birkirilgan vazifalariga amal qilishlarini ta'minlash. Ichki nazoratni maqsadiga erishishi doimiy.

1- jadval

Tashqi va ichki auditning tavsif jihatdan farqlanishi


№	Farq qiluvchi belgilar	Ichki audit	Tashqi audit
1.	Maqsadi bo'yicha	Korxona rahbariyati tomonidan belgilanadi	Moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini baholash va amaldagi qonunchilikka rioya etilayotganligini tasdiqlash
2.	Qo'yilgan vazifalariga ko'ra	Korxona bo'limlari yoki umuman korxonaning talabiga ko'ra korxona kengashi va boshqaruvchisi tomonidan belgilanadi	Mustaqil tomonlar o'rtasidagi shartnomaga asosan: korxona va auditorlik tashkiloti
3.	Javobgarligi bo'yicha	Majburiyatni bajarganligi uchun rahbariyat oldida	Mijoz va huquqiy – me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan uchunchi shaxslar oldida
4.	Obe'kti bo'yicha	Boshqaruvning alohida funktsional masalalarini echish, korxonaning axborot tizimini ishlab chiqish va tekshirish	Korxonaning hisob tizimini va moliyaviy hisobotlarini tekshirish
5.	Sub'ekti bo'yicha	Korxona rahbariyatiga bo'ysunuvchi va shtat tarkibidagi xodimlar	Auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga ega bo'lgan yuridik shaxs
6.	Huquqiy jihatlar bo'yicha	Mustaqil belgilanadi (yoki korxonalarda ichki audit o'tkazish to'g'risidagi Nizom)	Umumqabul qilingan auditorlik standartlari bilan belgilanadi
7.	Faoliyat turi bo'yicha	Ijro faoliyati	Tadbirkorlik faoliyati
8.	O'zaro munosabat bo'yicha	Korxona rahbariyatiga bo'ysunishi va undan mustaqilligi	Teng huquqli sherikchilik, mustaqillik
9.	Xizmatlar uchun haq to'lash printsiplariga ko'ra	Shtat jadvaliga asosan ish haqi	Haqni mijoz – korxona yoki uning roziligiga ko'ra auditorlik xulosasini olishga ehtiyoji bo'lgan organ to'laydi
10.	Hisobot taqdim etilishi bo'yicha	Korxona egasi va boshqaruv organiga	Auditorlik tashkilotining yakuniy qismi nashr ettirilishi mumkin, tahliliy qismi mijozga topshiriladi
11.	Uslubiy jihatdan	Uslubiy jihatdan bir xil, ammo qo'yilgan maqsadlar xilma – xilligidan kelib chiqib har xil nisbatlarda qo'llaniladi	

3. Axborotlardan foydalanuvchilar. O'tkazilgan tashqi audit axboroti natijalaridan foydalanuvchilar tashqi foydalanuvchilar.

O'tkazilgan ichki nazoratni axborotlari ichki foydalanuvchilar uchun tayyorlanadi, xususan tashkilot boshqaruvchisi va menejerlar uchun.

4. Tanlash erkinligi. Mustaqil tashqi audit auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun asosida tashkil qilinib, uning asosiy tamoyillari, maqsadi, izlanish tartibi, auditorlik dalillarini to'plash, natijalarni yoritish, tekshirilayotgan tashkilot rahbari bilan birgalikda ish olib borish ko'rsatilgan. Tashqi nazorat ma'lum bir ma'noda markazlashtirilgan va belgilab qo'yilgan.

Ichki nazorat tashkilot boshqaruvining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda tashkil qilinadi. Davlat tomonidan ichki nazoratni asosiy yo'nalishigina belgilab beriladi - xatlovdan o'tkazish tartibi, xujjatlashtirishni tashkillashtirish qoidalari, analitik hisobni yuritish tavsiyalari, boshqaruv lavozim majburiyatlarini aniqlash va boshqalar.



2-chizma. Ichki nazorat usullari³

Ichki nazorat usuli va jarayoni tasnifi

Nazoratning usuli va jarayoni ichki nazorat tizimining eng muhim tarkibi hisoblanadi. Tadbirkor yuridik shaxs bo'lmagan holda faoliyat ko'rsatayotgan va

³ Tulaxodjaeva M.M. «Audit» (darslik). Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. Iqtisodiyot, 2010 y. – 446-b.

korxonada yolg'iz o'zi bo'lsa, nazoratni muhim jarayoni kerak bo'lmaydi, chunki unga o'zini o'zi aldashni va buyurtmachini aldashni xojati yo'k. Biroq yollanib ishlovchilari bor tashkilotlarda yuqoridagi kabi nazoratni usuli va jarayoni bo'lishi kerak ya'ni tashkilot rahbari yoki korxona egasini maqsadlari yo'lida xizmat qilishi lozim. Bundan tashqari bunday nazoratni bo'lishi o'g'irliklarni keskin kamayishiga olib keladi.

Tashkilotni faoliyat turlarini ko'pligiga qaramasdan, faqat nazorat usulini 5 ta turi bor, bular quyidagicha:

Vazifalarni taqsimlanishi. Har qanday faoliyat turi doimo yaxshi nazoratda bo'ladi yoki xodimlar o'rtasida vazifalarni taqsimlangan bo'ladi yoki ikki tomonlama nazorat yuritiladi. Bu asosan naqd pul mablag'lari bilan hisob-kitob olib boriladigan joyda amalga oshiriladi.

Ichki nazorat tizimi va uning tashkil qiluvchi elementlari. Ichki nazorat tizimi tashkilot rahbari tomonidan quyidagi maqsadlarda tashkil qilinadi:

- tashkilot faoliyatini tartibli va samarali olib borish uchun;
- boshqaruv siyosatiga amal qilinishini;
- mulkni saqlanishini ta'minlash;
- operatsiyalarni sifatli xujjatlashtirilishini ta'minlash.

Ichki nazorat bo'limining hisobot taqdim qilishdagi javobgarligi.

Har xil tashkilotlarda ichki nazorat boshqaruvchisiga yuklangan javobgarlik bir xil bo'lmagan holda ish yuritadi. Har qanday holatda ham ichki nazorat ustidan asosiy javobgarlik yuqoridagi boshqaruvchilarga yuklanadi.

Ichki audit tizimini yaratishda quyidagi muhim tamoyillar asos qilinib olinishi kerak.

- *Ichki auditning aniq maqsadga qaratilganligi tamoyili;*
- *Ichki audit tizimining yaxlitligi va to'liqligi tamoyili;*
- *Ichki auditning hujjatlarga asoslanganlik tamoyili;*
- *Axborotni avtomatik tarzda qayta ishlash tamoyili;*
- *Tezkorlik tamoyili.*

Korxonalarda ichki audit xizmatini tashkil qilish quyidagi afzalliklarga ega:
Birinchidan, korxona boshqaruv kengashiga bo'limlar ustidan samarali nazorat o'rnatish imkonini beradi.

Ikkinchidan, ichki auditorlar o'tkazadigan maqsadli tekshiruv va tahlilning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlab beradi.

Uchinchidan, ichki auditorlar tekshiruv bilan birga bosh korxona, uning filiallaridagi moliyaviy – iqtisodiy, buxgalteriya va boshqa bo'limlar xodimlariga maslahatlar berish vazifasini ham bajaradilar.

Ichki audit nafaqat xususiy mulk egalari, balki kompaniyaning menejmentiga ham zarur. Menejrlarning maqsadi – oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda samarali yo'llar orqali biznesni boshqarish. Ushbu masalalarni ijobiy hal etish ikki masalaga bog'liq:

1) Menejer boshqaruv masalalarini to'g'ri hal etish uchun etarli ma'lumotga egaligi;

2) Ichki audit menejrlarga o'z zimmlariga qo'yilgan vazifani bajarishda yordam berish, ularga korxona aktivlarining samarali ishlatilishi.

“Korxonalarda ichki audit xizmati to'g'risida” nizomga muvofiq *ichki audit xizmatining huquqlari quyidagilardan iborat*:

➤ ichki auditni amalga oshirish davomida paydo bo'ladigan masalalar bo'yicha korxonaning hujjatlarini (rahbarning buyruqlari, farmoyishlari, boshqaruv organlari qarorlari, ma'lumotnomalar, hisob kitoblar, zarur hujjatlarning tasdiqlangan nusxalari va boshqa hujjatlarni), korxonaning mansabdor va ma'sul shaxslaridan og'zaki va yozma tushuntirishlar olish;

➤ ichki audit o'tkazishga ko'maklashish uchun korxonaning tegishli mutaxassislarini jalb etish.

Ichki audit xizmati xodimlarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

➤ ichki auditni amalga oshirishda qonunlar, nizomlar va boshqa me'yoriy xujjatlari talablariga rioya qilish;

- moliya va statistika hisoboti ko'rsatkichlarining ishonchliligini tekshirish;
- hisobotlar tuzish;
- ichki auditni amalga oshirishda olingan axborotning maxfiyligiga rioya qilish;

- korxonaga uning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan zarar etkazilganidan dalolat beruvchi holatlar aniqlangan taqdirda bu haqida darhol korxonaning kuzatuvchi kengashiga xabar berish va auditorlik hisobotida tegishli yozuvni qayd etish;

- aktivlarni xatlovdan o'tkazishda va qonunda belgilangan tartibda uning o'z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilishda ishtirok etish;

- Ichki audit xizmati qonun hujjatlariga va korxonaning ta'sis hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Ichki auditorlar majburiyatlariga, shuningdek quyidagilarni kiritish mumkin:

- Nazorat tizimining samaradorligini tekshirish;
- Tashkilot faoliyati samaradorligini baholash;

O'rganish obektiga qarab, ichki auditning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- Boshqaruv tizimining funktsional auditi;
- Boshqaruv tizimining tashkiliy-texnikaviy auditi;
- Tashkilot boshqaruvining kompleks auditi;
- Faoliyat turlari auditi;
- muvofiqlilik bo'yicha audit.

Korxona, aktsiyadorlik jamiyati, muassasa va tashkilotlarda yuritiladigan buxgalteriya hisobining muhim vazifalaridan biri reja topshiriqlarining bajarilishi ustidan nazorat o'rnatishdir. Korxonalar va ularning ayrim qismlari faoliyati uchun belgilangan reja topshiriqlarining bajarilishi ustidan nazorat buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida olib borilib, uning yordamida hisob ko'rsatkichlari uzluksiz

reja ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi va o'rtadagi farq, uning kelib chiqish sabablari aniqlanadi.

II bob. Ichki audit xizmati ishining samaradorligini baholashning amaliy jixatlari

2.1. Aktsionerlik jamiyatlarida ichki audit xizmatini tashkil etish tartibi

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki audit qonun va me'yoriy hujjatlarga asosan tashkil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2006 yil 27 sentyabrdagi PQ-475-son qaroriga, hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonalarining samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son qaroriga muvofiq aktivlarining balans qiymati 1 mlrd. so'mdan ortiq bo'lgan korxonalarda ichki auditni tashkil etishga qo'yiladigan yagona talablarni hamda uning ishini tashkil etishning metodologik asoslarini belgilash maqsadida «Korxonalardagi ichki audit xizmati to'g'risida Nizom» qabul qilindi. Hozirgi kunda ushbu Nizom xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki auditni tashkil qilish tartibi ko'rsatilgan me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, ichki audit korxonaning Kuzatuvchi kengashining qarori bilan korxonaning ichki auditi bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. Ichki audit xizmati- mazkur Nizom talablari hisobga olingan holda korxona Kuzatuvchi kengashining qarori bilan tashkil etiladigan korxonaning ichki auditni amalga oshiradigan tarkibiy bo'linmasi. Demak, ichki audit xo'jalik yurituvchi sub'ektning Kuzatuvchi kengashi tomonidan tashkil qilingan tarkibiy bo'linma tomonidan amalga oshiriladi.

Ichki auditni amalga oshirishda ichki audit xizmati quyidagi huquqlarga ega:

➤ ichki auditni amalga oshirish davomida paydo bo'ladigan masalalar bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub'ektning (rahbarning buyruqlari, farmoyishlari, boshqaruv organlari qarorlari, hisob-kitoblar, zarur hujjatlarning tasdiqlangan

nusxalari va boshqa hujjatlarni), xo'jalik yurituvchi sub'ekt mansabdor va ma'sul shaxslaridan og'zaki va yozma tushuntirishlar olish;

- ichki auditni o'tkazishga ko'maklashish uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektning tegishli mutaxassislarini jalb etish.

Ichki auditni amalga oshirishda ichki audit xizmati quyidagilarga majbur:

- ichki auditni amalga oshirishda qonun va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya qilish;

- belgilangan talablarda hisobotlar tuzish;

- moliya va statistika ko'rsatkichlarining ishochliligini tekshirish;

- ichki auditni amalga oshirishda olingan axborotlarning maxfiyligiga rioya qilish;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektga uning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan zarar etkazilganidan dalolat beruvchi holatlar aniqlangan taqdirda bu haqda darhol xo'jalik yurituvchi sub'ektning kuzatuvchi kengashiga xabar berish va auditorlik hisobotida tegishli yozuvni qayd etish;

- aktivlarni xatlovdan o'tkazishda va qonunda belgilangan tartibda uning o'z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilishda ishtirok etish.

Ichki audit xizmati qonun hujjatlariga va xo'jalik yurituvchi sub'ektning ta'sis hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subektlarda ichki auditni tashkil qilishda ichki audit xizmati xodimlari quyidagi talablardan biriga javob berishi kerak:

- auditorning malaka sertifikatiga;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalarida, yoxud O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi ta'limga tengligi e'tirof etilgan xorijiy davlat muassasasida olingan oliy ma'lumotga, oxirgi o'n yilning kamida ikki yilida buxgalteriya hisobi, audit, moliya yoki soliq nazorati sohasida amaliy ish stajiga (shu jumladan, o'rindoshlik bo'yicha) ega bo'lish.

«Korxonalardagi ichki audit xizmati to'g'risida Nizom»ga muvofiq ichki audit xizmati xodimlari soni ichki audit maqsadlariga samarali erishish va uning vazifalarini hal etish uchun etarli bo'lishi kerak. Ya'ni, ichki audit xizmati shtatida quyidagilar bo'lishi kerak:

Ichki audit xizmatiga tegishli auditor sertifikatiga ega bo'lgan uning rahbari boshchilik qiladi.

Har yili ichki audit xizmati rahbari ichki audit xizmati xarajatlarining yillik smetasini tuzadi va uni tasdiqlash uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektning kuzatuvchi kengashiga taqdim etadi.

Ichki audit xizmati xodimlarining kasb darajasi tegishli litsenziyaga ega bo'lgan ta'lim muassasalarida muntazamlilik asosida ularning malakasini oshirish vositasida saqlanishi kerak.

Ichki audit xizmati xodimlari xo'jalik yurituvchi sub'ekt kuzatuvchi kengashi tomonidan har yili attestatsiyadan o'tkazilishi kerak.

Bizga ma'lumki, erkin bozor iqtisodiyotida har qanday faoliyat turining erkinligi qonun va me'yoriy hujjatlar asosida ta'minlanadi. Shu jumladan, ichki audit xizmati mustaqilligining asosiy shartlari quyidagilar hisoblanadi:

➤ ichki audit xizmati rahbarini va uning xodimlarini lavozimga tayinlash va egallab turgan lavozimidan ozod etish, xo'jalik yurituvchi sub'ekt kuzatuvchi kengashining qarorlari bo'yicha ularga ish haqi miqdor va boshqa to'lovlarni belgilash;

➤ xo'jalik yurituvchi sub'ekt kuzatuvchi kengashiga bevosita bo'ysunish.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki audit:

- tasdiqlangan biznes-reja bajarilishini;
- korporativ boshqarish printsiplariga rioya qilinishi;
- buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning holatini;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri hisoblab chiqilishi va to'lanishi;
- moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya etilishini;
- aktivlarning holatini;
- ichki nazoratning holatini tekshirish va ularning monitoringini olib borish yo'li bilan faqat ichki audit xizmati xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Kuzatuvchi kengash tomonidan korxona ixtisosidan kelib chiqib qonun hujjatlariga muvofiq tekshirishni o'tkazishning boshqa yo'nalishlari belgilanishi mumkin.

O'tkazilgan tekshirishlar natijalari bo'yicha bevosita uni o'tkazgan xodim (xodimlar) tomonidan imzolanadigan tegishli hisobotlar tuziladi. Ushbu hisobotlarda:

a) biznes-reja bajarilishini tekshirish natijalari to'g'risida hisobot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

uning bajarilishining miqdor va sifat ko'rsatkichlari tahlili;

uning bajarilishi ta'minlanmagan taqdirda aybdor mansabdor shaxslar shaxsan ko'rsatilgan holda aniqlangan sabablar bayoni;

b) korporativ boshqarish printsiplariga rioya qilishni tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

korxona boshqaruv organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning samaradorligi, uning qatnashchilari (muassislar) ning qonuniy huquq va manfaatlariga rioya etilishi tahlili;

korporativ boshqarish sohasida qonun hujjatlari buzilishi holatlari bayoni (ta'sis hujjatlariga rioya qilish, umumiy yig'ilishlar va korxona boshqaruv

organlari majlislari o'tkazilishi, dividendlar to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi va hokazolar);

б) korxonaning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisoboti holatini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilar o'z ichiga olishi kerak:

buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotini tuzishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini baholash;

aniqlangan buxgalteriya hisobotini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashning belgilangan tartibi buzilishining tavsifi;

г) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri hisoblanishi va to'lanishini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

tuzilgan va tegishli organlarga taqdim etilgan soliqlar va majburiy to'lovlar hisob-kitobi to'g'riligini baholash;

soliqlar va majburiy to'lovlar hisoblash va to'lashning belgilangan tartibi buzilishi holatlarini, soliq solinadigan bazani belgilashda chetga chiqishlarni bayon qilish;

д) moliya- xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishda korxona tomonidan qonun hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

korxona tomonidan amalga oshirilgan moliya- xo'jalik operatsiyalarining qonun hujjatlariga muvofiqligini baholash;

ichki audit davomida aniqlangan korxona tomonidan amalga oshirilgan moliya- xo'jalik operatsiyalarini nomuvofiqligini bayon qilish;

е) ichki nazoratning holatini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

ichki nazorat tizimini va uning faoliyat ko'rsatishidagi mavjud kamchiliklarni bayon etish;

korxona tarkibiy bo'linmalaridagi ijro intizomining holati to'g'risidagi ma'lumotlar, uning aniq xodimlari ishidagi mavjud kamchiliklar.

Aktivlarning holatini tekshirish natijalari aktivlarni xatlovdan o'tkazishning asoslanishi hamda ularning harakati, amalda mavjudligi va saqlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olshi kerak.

Shuningdek, o'tkaziladigan tekshirishlar bo'yicha barcha hisobotlarda xo'jalik yurituvchi sub'ekt ijro etuvchi organi va tarkibiy bo'linmalari faoliyati baholanishini, aniqlangan chetga chiqishlar va qonunni buzishlari bartaraf etishga doir tavsiyalarni, tasdiqlaydigan hujjatlarning to'liq paketini o'z ichiga oladigan yakuniy qism bo'lishi kerak.

O'tkazilgan ichki audit yakunlari bo'yicha, yuqoridagilarga asosan, ichki audit rahbari tomonidan imzolanadigan yig'ma hisobot tuziladi.

Ichki audit yig'ma hisoboti:

- tahliliy qismni;
- yakuniy qismni;
- tasdiqlaydigan hujjatlarning to'liq paketini o'z ichiga olishi kerak.

Ichki audit yig'ma hisobotining tahliliy qismi, yuqoridagilarga asosan, ichki audit xodimlari tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijalari to'g'risidagi umumlashtirilgan axborotni o'z ichiga olishi kerak.

Ichki audit hisobotining yakuniy qismi:

- korxonaning ijro etuvchi organi va tarkibiy bo'linmalari faoliyatiga, shuningdek, likvidligigiga umumiy bahoni;
- aniqlangan chetga chiqishlar va qonunni buzishlarni bartaraf etish bo'yicha ichki audit xizmatining tavsiyalarini hamda korxonaning moliya- xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishga, korporativ boshqarishni takomillashtirishga doir umumlashtirilgan takliflarni o'z ichiga olishi kerak.

Yig'ma hisobot ichki audit yakunlangandan keyin 10 kun mobaynida tugallanishi lozim.

Yig'ma hisobotlar bevosita korxonaning kuzatuvchi kengashiga uning ko'rib chiqishi va keyinchalik tasdiqlashi uchun taqdim etilishi kerak. Hisobotlar

nusxalari tasdiqlanganidan keyin korxona ijro etuvchi organiga taqdim etilishi kerak.

Korxonaning ijro etuvchi organi ichki audit natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish shart.

Ichki audit xizmati tekshirish davomida aniqlangan qonun buzilishlarini bartaraf etish, shuningdek umuman korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning o'z vaqtida va zarar darajada bajarilishi ustidan nazorat o'rnatishi kerak.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki audit xizmati xodimlari:

- o'zlari o'tkazgan tekshirishlar natijalari buzib ko'rsatilganligi;
- ularga taqdim etilgan yoki ular tomonidan xizmat vazifalarining bajarilishi munosabati bilan ularga ma'lum bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning sirini tashkil etadigan axborotning maxfiylikiga rioya qilinmaganligi;
- olingan hujjatlarning saqlanishi va qaytarilishi ta'minlanishi uchun javob beradilar.

Ichki auditi xizmat xodimlari auditorlik tekshirishlari davomida aniqlangan qonunni buzishlari bartaraf etish va xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlarga baho berilishi uchun javob beradi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning kuzatuvchi kengashi har chorakda ichki audit xizmatining tekshirishlar natijalari to'g'risidagi hisobotni eshitadi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliya- xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan chora- tadbirlar ko'radi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki audit O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2006 yil 27 sentyabrdagi PQ-475-son qaroriga, hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonalarning samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur

darajada hisobga olinishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son qaroriga muvofiq aktivlarining balans qiymati 1 mlrd. so'mdan ortiq bo'lgan korxonalarda ichki auditni tashkil etishga qo'yiladigan yagona talablarni hamda uning ishini tashkil etishning metodologik asoslarini belgilash maqsadida «Korxonalardagi ichki audit xizmati to'g'risida Nizom» asosida tashkil qilinadi. Bu Nizomda kamida 2 ta auditor bo'lgan korxonalarda ichki auditni tashkil etishga qo'yiladigan yagona talablar hamda uning ishini tashkil etishning metodologik asoslari belgilangan. Bizningcha, kamida 2 ta auditor bo'lishi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki auditni tashkil etishning sodda va ixchamlashtirilgan uslubiyatining ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki audit:

- tasdiqlangan biznes-reja bajarilishini;
- korporativ boshqarish printsiplariga rioya qilinishi;
- buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning holatini;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri hisoblab chiqilishi va to'lanishi;
- moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya etilishini;
- aktivlarning holatini;
- ichki nazoratning holatini tekshirish va ularning monitoringini olib boriladi.

Biz, tadqiqot ob'ekti hisoblangan «Munis» OAJda tashkil qilingan ichki audit bo'linmasi kuzatuv kengashiga jamiyatga qarashli tashkilotlarning tahliliy ma'lumotlari bilan ta'minlashga va istiqbolli boshqaruv qarorlarining qabul qilinishiga xizmat qilayotganini kuzatdik.

Demak, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki audit bo'linmasini tashkil etish va bo'linmaning ma'lumotlaridan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni boshqarishda oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2.2. Ichki auditda qo'llaniladigan auditorlik amallari hamda audit natijalarini rasmiylashtirish va taqdim etish tartibi


Ichki xo'jalik nazoratini xo'jalik yurituvchi sub'ekt ma'muriyati, buxgalteriya, yirik xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda esa- maxsus tashkil etilgan ichki audit xizmatilari, nazorat- taftish bo'limi, xarajatlarni boshqarish bo'limi va boshqa bo'linmalar amalga oshiradi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt tarkibiy bo'linmalari (bo'limlar, xizmatlar, ishlab chiqarish tseklari, uchastkalar, brigadalar) o'rtasidagi munosabatlar asosiga qurilgan, ichki nazorat tizimini rivojlantirish nazorat mazmunini, uning xo'jalik yurituvchi sub'ektni boshqarishdagi roli va ahamiyatini tub sifat jihatidan yangicha nazariy fikr yuritishni sezilarli darajada talab qiladi.

Nazorat turlari tavsifining bozor iqtisodiyotida shakllangan holatini ko'rib, ishonch bilan aytish mumkinki, nazorat tizimi nomidan ish yurituvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uning faoliyatini taqdim etayotganda nazorat tizimi bog'liq bo'lmasligi lozim, nazorat sub'ektlari esa o'z nazorat funktsiyalarini belgilangan huquq, majburiyatlar va javobgarliklar chegarasida amalga oshirib, ular taqdim etayotgan tizimning mavjudligi va amal qilish maqsadlariga erishishga yordam ko'rsatishlari lozim. Nazorat sub'ektlari o'z mavjudlik va amal qilish maqsadlariga erishish uchun nazorat funktsiyalarini belgilangan huquq, majburiyatlar va ma'suliyatlar chegarasida amalga oshirishi lozim, chunki nazoratning eng muhim va barqaror belgilari sifatida nazoratni amalga oshiruvchi organ ixtiyoriga bog'liq bo'lgan, maqsadli ustanovkalar va vazifalar doirasi xizmat qilishi mumkin.

Bevosita nazorat mazmunini o'rganish bilan uning ta'sirchanligini muammosini hal etish talab etiladi. Nazorat ta'sirchanligi uning ish sifati bilan belgilanishi lozim. U foyda olishga, raqobat kurashida muvaffaqiyatga, mijozlar bazasi va sotiladigan bozorini kengaytirishga xizmat qilishi lozim. Nazorat turli yo'qotilgan zararlarni aniqlash va qayd etishga emas, balki ulardan ogoh etishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Nazorat vositasida, xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliya-xo'jalik faoliyatini batafsil o'rganish asosida chiqarilayotgan mahsulot va

materiallarning o'g'irlanishi va ishdan chiqishini oldini olish bo'yicha, pul mablag'lari va moliyaviy resurslarni saqlab qolish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqiladi.



3-chizma. Mikrodarajadagi nazorat tizimi⁴.

Bunda asosiy e'tibor qonunchilik, me'yoriy hujjatlar, xo'jalik yurituvchi sub'ektning amal qilishidagi optimal rejimini chetga chiqishlarni yuzaga kelishini oldini olishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Bizga ma'lumki, ichki audit- xo'jalik yurituvchi sub'ektning kuzatuvchi kengashi qarori bilan tashkil etilgan ichki audit xizmati (xo'jalik yurituvchi sub'ekt tarkibiy bo'linmasi) tomonidan amalga oshiriladi.

Ichki auditni amalga oshirishning muhim sharti- bu buxgalteriya hisobi, statistika va tezkor hisobotlardagi moliyaviy axborot, shuningdek xo'jalik faoliyatining turli tomonlarini aks ettiruvchi, umumlashgan moliyaviy ko'rsatkichlarning mavjudligi va qonunga muvofiq yuritilishidir.

Korxonalarning faoliyatida buxgalteriya hisobini va hisob siyosatini to'g'ri yuritilishi, korxonani samarali boshqarishga hamda iqtisodiy barqarorlikga olib keladi. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan bo'lib, unda ichki hisob va hisobot tizimini ishlab chiqishi, xo'jalik

⁴ Суйц В. Аудит. Учебник. – М.: "Высшее образование", 2007 г. –398 стр

operatsiyalarini nazorat qilish taratibi, buxgalteriya hisobi to'liq va aniq yuritilishi hisob kitob hujjatlarini saqlanishi, tashqi foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobot tayyorlanishi, soliq hisobotlari va boshqa moliyaviy hujjatlar tayyorlanishi, hisob kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilishi buxgalteriya hisobi xizmati va bosh hisobchi zimmasiga yuklatilgan.⁵ Unda buxgalteriya bo'limi tomonidan amalga oshiriladigan talablarga buxgalteriya hisobni aniq va to'g'ri yuritish, ma'lumotlarni saqlash alohida e'tiborga molik. Bu esa korxonani tahlil qilishda va auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishda muhim hisoblanadi. Ichki audit xodimlari buxgalteriya hisobi ma'lumolaridan foydalanib, korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyatini tekshiradi va tekshirish natijalari yuzasidan hisobot tuzadi.

Auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to'g'riligi va qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog'liq moliyaviy axborotni auditorlar tomonidan tekshirishdir.⁶ Ichki auditorlar ham buxgalteriya hisobini va moliyaviy hisobot hamda moliyaviy axborotlarni qonun hujjatlar asosida tekshirib, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda korxonani samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Ichki auditorlar korxona moliyaviy xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar, ya'ni auditorlik dalillarini to'plashda quyidagi umumiy metodlardan foydalanishi mumkin:

- solishtirish usuli (iqtisodiy hodisalar, ko'rsatkichlarni o'zaro va biznes-reja bilan solishtirish);
- gipoteza usuli (hodisalarning sodir bo'lishi, natijalari turli shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda o'rganiladi. Bunday usul ko'pincha "yashirin iqtisodiyot" natijalarini aniqlashda keng foydalaniladi);
- tahlil va sintez usuli (audit ob'ekti bo'lgan ma'lum ko'rsatkich omillar asosida o'rganiladi, mavjud ichki imkoniyatlar aniqlanadi);
- taftish usuli (korxonaning faoliyatiga to'liq baho berish uchun barcha operatsiyalar tasdiqlovchi nazoratidan o'tkaziladi);

⁵ "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni № 279-I, 30.08.1996y.

⁶ "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni (yangi tahriri) №734-XII, 09.12.1992 y.

- inventarizatsiya usuli (korxonadagi huquqiy aktivlar va majburiyatlarning buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga monandligi tekshiriladi);
- kalkulyatsiya usuli (bajarilgan ishlar, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi, umumiy ovqatlanish korxonalarda esa taomlarning sotilish bahosi aniqlanadi);
- ekspertiza usuli (hujjatlarning realligini, haqqoniyligi, mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari laboratoriya yo'li bilan aniqlanadi);
- buxgalteriya schyotlari va ikkiyoqlama yozuv usuli (korxona aktivlari va majburiyatlarining harakati hamda qoldiqlari buxgalteriya hisobi schyotlari orqali tekshiriladi);
- balans usuli (korxonadagi hodisalar, jarayonlarni rasmiylash-tirish, dastlabki ma'lumotlarni umumlashtirish orqali nazorat qilish).

Buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda dastavval tahlil qilishdan boshlanadi. Chunki moliyaviy tahlil qilish orqali korxona faoliyatini samarali yuritilayotganligi namoyon bo'ladi. №13 sonli AFMS "Tahliliy amallar" deb nomlanib, unga ko'ra auditor tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy hisobot ko'rsatkichlaridagi g'ayrioddiy tafovudlarni aniqlanishi tahliliy amallar bajarilishining natijasi hisoblanadi.⁷

Ichki audit xizmati xodimlari nizomda belgilangan vazifasiga asosan buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarining holatini tahlil qilish orqali uning natijalarini kuzatuv kengashiga muntazam ravishda taqdim etib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va ularni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar beradi. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni o'z vaqtida va to'g'ri yuritilishini nazorat qilib, ular quyidagi moliyaviy hamda buxgalteriya hisobotining ko'rsatkichlari orqali ma'lumotlarni shakllantirib boradi. Aktsiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati yo'nalishlarini va alohida jarayonlarining ichki auditi usullariga tegishli bir nechta umumiy holatlarni ko'rib chiqamiz. Biznes-tavakkalchilik nuqtai nazaridan har bir muhim

⁷ Auditorlik faoliyatining milliy standarti № 13 "Tahliliy amallar" O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan 03.09.1999 y. № 814

yo'nalish bo'yicha o'tkaziladigan usullar nizom holatidagi hujjatlar, lavozimga tegishli yo'l-yo'riqlar, buyruq, farmoyish, qaror va shartnomalar ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Ular quyidagilar:

- * Biznes rejani bajarilishi
- * Debitorlik va kreditorlik qarzlari
- * Aktivlarning holati
- * Soliq va boshqa majburiy to'lovlarning hisoblanishi
- * Moliyaviy natijalar hisobi
- * Xususiy kapital hisobi


Aktsiyadorlik jamiyatlarining barchasida yil boshida biznes reja tuziladi va kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Ichki auditorlar korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyatini tekshirishda biznes reja bajarilishini tekshirish asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Ichki nazoratning nuqtai nazaridan barcha to'lovlarni markazlashtirish lozim. Hududiy bo'linishlar mavjud bo'lgan taqdirda ham barcha bo'linmalar va boshqaruvchi kompaniya o'rtasida muayyan bitimlar yuzasidan kelishuvlar bo'lishi lozim. Demak, ichki auditor tekshirish dasturi asosida muhim bitimlarning kelishilganligini tekshirishi lozim va ushbu bitimlar yuzasidan amalga oshirilgan hisob-kitoblarni nazoratga olishi kerak.

Ko'p hollarda qarzdorlik nazorati, shuningdek debitorlik qarzdorligi nazorati moliyaviy-iqtisodiy va komertsiya bo'limiga tekshirish uchun topshiriladi. Har holda mijozlar bilan tezkor faoliyatni amalga oshirish uchun bu ikki xizmat (bo'lim) o'rtasida o'zaro aloqadorlik mexanizmi mavjud bo'lishi kerak. Ichki auditor ushbu xizmatlar (bo'limlar)ning holati ichki nizomda ko'rsatilganligini inobatga olishi kerak, shuningdek, menedjerlarning mijozlar bilan o'zaro aloqasi va o'z vazifasini nizomga asosan olib borayotganini tekshirishlari lozim.

Aktsiyadorlik jamiyatlarining buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotini tahlil qilish va ichki auditorlar tomonidan baholashda ular eng avvvlo o'zlarining oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib, foydalilik (rentabilik), kapitaldan

foydalanish darajasi, moliyaviy barqarorligi, tulovga qobiliyatligi va o'zini moliyalashtirish darajasi, ish faolligi kabi mezonlardan kelib chiqadi.



4-chizma. Aktsiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy faoliyatini tahlil qilishda va samaradorligini baholashda qo'llaniladigan moliyaviy koeffitsentlar⁸

Moliyaviy tahlil va iqtisodiy tahlil kurslari doirasida aktsiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tahlil qilish va baholashda amaliyotda keng qo'llaniladigan koeffitsentlar quyidagicha guruhlanadi.

⁸ Палий В. Международные стандарты учета и финансовой отчетности. Учебное пособие. – М.: “ИНФРА – М”, 2009 г. – 512 стр.

Ichki auditorlar moliyaviy koeffitsientlar orqali korxonaning samaradorligini baholaydi. Har bir moliyaviy ko'rsatkichlar yuqori koeffitsientga ega bo'lsa, korxonaning moliyaviy barqarorligi ham oshib boradi. Buning uchun korxonalar har moliyaviy hisobot yilini foyda bilan yakunlashi zarur hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlab o'tish kerakki korxonalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati yo'nalishlari va alohida jarayonlarining ichki auditining umumiy masalalari quyidagilar bo'lishi lozim:

- ish tartibining to'liq bajarilmasligi yoki sifatsiz bajarilishi sabablarini analiz qilish;
- nazorat vazifalarining samaradorligini oshirishga yordam beradigan tadbirlar yoki vositalarni ishlab chiqish.

Biznes-reja tavakkalchilikning reytingiga qarab, ichki auditning yillik rejasida turli xil tekshirishlarni amalga oshirish usuli, shuningdek, alohida bo'linmalar va filial tashkilotlarning tekshirish muddatlari ko'rsatishi kerak. Har bir tekshirishda yil davomida boshqaruvchi (mas'ul ichki auditor) tayinlanadi, u o'z navbatida mas'ul markazlar sub'ektlari o'rtasidagi aloqani va nazoratni amalga oshiradi hamda tekshirish natijalari asosida hisobot tayyorlab har chorakda kuzatuv kengashiga taqdim etib boradi.

Auditorlik faoliyati natijalari bo'yicha rahbariyatga davriy ravishda hisobotlar taqdim etiladi, unda bajarilgan ishlar audit bo'limi vazifalari va auditorlik tekshiruvining kalendar grafiklari bilan qiyoslanadi, xarajatlar smetasi ijrosi tahlil qilinadi, asosiy chetlashishlarning sabablari izohlanadi va qanday zaruriy choralar qo'llash lozimligi ko'rsatiladi.

Ichki audit xizmati hisobotiga odatda quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

- mazkur audit maqsadi va xarakteri;
- u qamrab olgan davr;
- ixtiyoriy cheklovlarni o'z ichiga olgan audit ko'lami;

- ichki auditorlarning nasl-nomasi, lavozimlar, ish joylari, auditorning malakaviy sertifikat mavjudligi, ichki audit o'tkazish jarayonida majburiyatlar ko'rsatilgan holda ichki audit guruhlar tarkibi;

- mazkur audit jarayonida qo'llanilgan professional standartlar, qarorlar, qoidalar va metodik ko'rsatmalar;

- rahbarlar, mutaxassislar hamda boshqa tekshiruv sub'ektlarining mutanosib vazifa va majburiyatlari ko'rsatilgan holda tekshiruv ob'ektlari;

- mazkur audit maqsadlari uchun foydalanilgan mezonlar va bu mezonlarning maqbulligiga taalluqli tekshiruv ob'ektlarining rahbariyat bilan ixtiyoriy kelishmovchiliklari;

- audit yakunlari bo'yicha qilingan xulosalar;

- aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar (ushbu xulosa audit yakuni bo'yicha tayyorlanadigan barcha qaydlar uchun majburiy hisoblanmaydi);

- tekshiruv ob'ekti rahbarining mulohazalari (agar ular berilgan bo'lsa), jumladan tekshirish natijalarida aniqlangan kamchiliklarni va ixtiyoriy kelishmovchiliklarni bartaraf etish bo'yicha rejalashtirilgan choralar;

- mazkur audit erishishi ko'zlangan maqsadlarning har biriga aloqador natijalar bo'yicha chiqarilgan xulosalar.

Tekshirish natijalari bo'yicha xulosalar: tekshiruv ob'ektlarining u yoki bu haqiqiy faoliyat natijalarining tasdiqlangan mezonlarga mosligini tavsiflashi; aniqlangan chetlanishlarning tasdiqlangan mezonlardan og'ish darajasi, tusi va ahamiyatini ko'rsatishi; mavjud muammolarning sabablarini va ular yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan oqibatlarni aniqlashi; aniqlangan muammo vakolati doirasiga kiradigan mas'ul mansabdor shaxslarni ko'rsatishi lozim.

Shuni ham hisobga olish lozimki, xulosalar salmog'i hisbot va xulosalarning ishonarliligi, shuningdek, ularni tayyorlashda qo'llanilgan mantiqqa bog'liq bo'ladi.

Umumiy rejalar va alohida topshiriqlarni bajarish bo'yicha hisobotlar asosida ichki audit xizmati ishining yillik hisoboti tuziladi va audit bo'yicha qo'mitaga taqdim etiladi. Bunday hisobot, shuningdek, menejerlar (nazorat sub'ektlari) dan olingan hisobotlar asosida ichki audit xizmati faoliyati samaradorligi va natijaliligi baholanadi.

Umumlashma ko'rinishdagi yillik hisobotda nafaqat kamchilik va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar, tavsiyalarda taklif etilgan chora-tadbirlar haqqoniyligi, balki ichki audit xizmati ish smetasini bajarish bo'yicha hisobot, uning ishidagi cheklovlar va strategik reja hamda kelgusi yillik ish rejasi mazmuniga tuzatishlar kiritish bo'yicha takliflar ham keltiriladi.

Audit bo'yicha qo'mita aktsiyadorlarlar umumiy yig'ilishi va direktorlar kengashi ishi jarayonida ichki audit xizmati hamda turli darajali menejerlarning ichki audit xizmatining strategik ish rejasiga tuzatishlar kiritish bo'yicha takliflarini muhokama qiladi. Tasdiqlangan yangi maqsad va vazifalar ichki audit xizmatining strategik ish rejasiga kiritiladi, keyin ichki audit xizmati boshlig'i yangi qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishishni ta'minlash bo'yicha xarajatlarga tuzatishlarni tasdiq uchun taqdim etadi, shuningdek, yangi strategik reja tuzadi.

Kamchiliklar aniqlangan holatda tekshiruv natijalari haqida hisobotga odatda ularni bartaraf etish bo'yicha zaruriy choralarni qabul qilishga taalluqli tavsiyalar kiritiladi.

Tavsiyalar quyidagi talablarga javob berishi lozim: mutanosib xulosalarga asoslanishi va ulardan kelib chiqishi; mazkur kamchilik yoki muammo mavjudligining asosiy sabablarini bartaraf etishga yo'naltirilgan bo'lishi; shaklan aniq, sodda va lo'nda, lekin alohida ko'rib chiqiladigan holatlarda tushunilishi uchun etarli darajada batafsil bo'lishi; aniq choralar qabul qilishga yo'naltirilishi (ular dinamik bo'lishi va mutanosib choralarni qabul qilish uchun javobgar va bunday choralar qo'llashga vakolatli tashkilot, filial yoki bo'linma manziliga jo'natilishi lozim); uyg'unlik va mazmun nuqtai nazaridan ijobiy bo'lishi; ongli muddatda amalda bajariladigan va huquqiy yoki boshqa cheklovlarni hisobga


oluvchi; iqtisodiy samarali bo'lishi (ularni bajarish bilan bog'liq xarajatlar olinadigan foydadan ortib ketmasligi) lozim. Bunda imkoniyatga qarab tejalgan mablag'lar va potentsial foydaning miqdoriy bahosini keltirish, agar o'lchash mumkin bo'lsa, vaqt va mablag'larning qo'shimcha sarflarini keltirish talab etiladi. Shuningdek, natijalarga yo'naltirilgan bo'lishi (ular kutilgan natijalar haqida, agar mumkin bo'lsa, miqdoriy o'lchovlarda tasavvur berishi lozim); ularning bajarilishiga ishonch paydo bo'ladigan tarzda tuzilishi (masalan, qayd qilingan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qandaydir choralar qo'llanilgan yoki qo'llanilmaganligini aniqlash); qilingan ish haqida hisobotga kiritilgan boshqa tavsiyalarga mutanosiblik (zid kelmaslik) va shu nuqtai nazarda ketma-ket bo'lishi lozim.

Auditorlik faoliyatidagi ish sifati o'zining mohiyatiga ko'ra ikki qismdan iborat. Bu erda birinchi qismi ichki audit xizmatining yuridik maqomi, xodimlar bilan ishlash siyosati va umumiy faoliyati, ikkinchi qismi esa, audit jarayonida rioya etilishi lozim bo'lgan bosqichlarni to'g'ri tashkil qilishdan iboratdir. Ushbu bosqichlarni bir-biri bilan uzviy bog'langan holda tashkil etilishi keltirilgan.

Bu erda ichki audit faoliyatini rejalashtirishda aniq maqsadga intilish, audit guruhini tanlagan holda uni me'yoriy hujjatlar va resurslar bilan ta'minlash orqali sifat birliklarini tashkillashtirish, direktorlar kengashi bilan hamkorlikda ish olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Tavsiyalarni tayyorlashda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun qo'llanilishi talab etilgan choralarga nisbatan tekshiruv sub'ektlarining rahbarlari fikrini imkon qadar oldinroq oydinlashtirish zarur.

Keyin tavsiyalarni bajarishni tekshirishda taklif etilgan tavsiyalar samaradorligi yoki hatto maqbulligi haqida nazorat sub'ektlari fikri qayta aniqlanadi. Nazorat sub'ektlari fikri ayniqsa ichki auditorlar bilan kelishmovchiliklar ichki auditor ishchi hujjatlari va hisobotlarida majburiy ravishda aks ettirilishi darkor.



5-chizma: Ichki audit xizmatining tekshiruv jarayonida ish sifatini ta'minlash bosqichlari.

Tavsiyalar bajarilishini tekshirish ichki auditorlar nazorat sub'ektlari o'rtasida teskari aloqasi ta'minlanadi va quyidagi maqsadlarda olib boriladi: aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan tavsiyalarni bajarish bo'yicha nazorat sub'ektlari harakatlari o'z vaqtidaligi va tizimlilikini kuzatish; aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qo'llanilgan choralarning haqiqiy samaradorligini baholash; tavsiyalarni bajarish mehnat sig'imi va "xarajatliligini" baholash; aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan qo'shimcha ishlar o'tkazish yoki tavsiyalarning amaliyligini qo'shimcha kelgusi tekshiruvini

o'tkazish zaruratini aniqlash; ushbu holat yoki vaqt uchun tatbiq qilinayotgan tavsiyalar nomuvofiq yoki nomaqbulligiga oid dalillar olish; ichki auditorlar tavsiyalari bajarilishi tekshiruvi bo'yicha ish natijalarini mutanosib hisobotga kiritish.

Tekshiruvlar turli shakllarda o'tkazilishi mumkin: audit qilinayotgan ob'ekt joriy hisobotida ushbu bandni kiritish yoki maxsus joriy hisobot shaklida tavsiyalarni bajarish jarayoni haqida joriy axborotlar negizida; tekshirilgan tashkilotlardan olingan ularning bajarilishini tasdiqlovchi, mutanosib hujjatlar asosida, shuningdek, bevosita nazorat ob'ektlarida tavsiyalarning ayrim jihatlari bajarilishini tekshirish yo'li bilan. Bunda tashkilot, filiallar va bo'linmalardagi takroriy tekshiruvlar ularning faoliyatini chuqur tahlil qilishni talab qilmaydi, samara paydo bo'lishining kutilgan muddati asosida grafik bo'yicha rejali tartibda olib boriladi.

O'tgan auditorlik tekshiruvi tavsiyalari bajarilish jarayonini o'z ichiga olgan auditning to'liq dasturi bo'yicha qayta tekshirish o'tkazish jarayonida ko'pincha nazorat ob'ektini ichki auditorlar tomonidan yil davomida qayta tekshirilishi o'z maqsadiga ko'ra avvalgi dasturlardan farq qiluvchi audit dasturi yordamida amalga oshiriladi. Biroq hatto maqsadlar mos kelmaganda ham oldingi audit tavsiyalarini bajarishni tekshirish bandi joriy tekshiruv dasturiga kiritilishi lozim.

To'liq dasturda qayta tekshirishni kutilayotgan samara uni o'tkazish xarajatlaridan ortishi muqarrar holatda rejalashtirilishi va olib borilishi maqsadga muvofiq.

2.3. Aktsiyadorlik jamiyatlarida ichki auditni tashkil qilishning uslubiy jihatlari

Aktsiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv tizimi uchun ichki audit faoliyatini takomillashtirishning zarurligi va afzallik jihatlari quyidagilar bilan izohlanadi; 1) tashqi auditga nisbatan kam xarajatliligi; 2) qonunchilikka doimiy rioya qilinishining kafolatlanishi; 3) ichki auditorlar xizmatidan muntazam foydalanish imkoniyati; 4) ichki auditorlarning aktsiyadorlik jamiyatidagi vaziyatdan, ish va

boshqaruv uslubidan, aktsiyadorlik jamiyatida qabul qilingan siyosatdan xabardorligi; 5) auditorlar orqali bo'limlardagi yuqori malakali mutaxassislarining tekshiruvlarga jalb qilinishi; 6) ilg'or texnologiyalar va ish uslubini joriy etishning rag'batlantirilishiga ko'mak beruvchi tizim ekanligi.

Tahlillar ko'rsatishicha, retrospektiv xususiyatga ega bo'lgan, audi-torlik faoliyati moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarini me'yoriy hujjat-larga muvofiq to'g'ri aks ettirilganini tekshirishga qaratilgan bo'lib boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun etarli emas. Bugungi kunda axborotdan foydalanuvchilar auditorlardan iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun asos bo'la oladigan, aktsiyadorlik jamiyatining holatini aks ettira-digan ma'lumotni olishga umid qiladilar. Fikrimizcha, bozor munosabat-lariga o'tish sharoitida audit jarayoni, yo'nalishi va usuliga ko'ra ikki yo'nalishdagi vazifalarni o'zida mujassam etishi lozim.

2-jadval.

Aktsiyadorlik jamiyatlarida ichki audit yo'nalishlari va vazifalarining guruhlanishi

Audit yo'nalishi	Tekshiruv usuli	Ichki auditning vazifalari
Faoliyat natijala-rini baholash	Amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarini baholash usuli	Aktsiyadorlik jamiyatining tadbirkorlik faoliyatini, ishonchliligi va barqarorligini, mulkdorlar kapitalining daromadliligini baholash. Risklarni inobatga olgan holda auditdan maqsadli va tizimli foydalanish.
Faoliyat samarador-ligini baholash	Aktsiyadorlik jamiyati faoliyat ko'r-satayotgan iqtiso-diy muhitni tah-lil qilish va baholash	Tahlilda tekshiruvning maqsadi va uslublarini aniqlash, moliyaviy ahvolini baholash va rivojlanish dasturlarini amaliyotga tatbiq qilish masalalariga alohida e'tibor berish. Aktivlar butligini o'rganish, elektron dasturiy mahsulotlar sifatini huquqiy tomonlarini tekshirish, iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash va turli masalalar bo'yicha maslahat berish.
	Boshqaruv faoliyatini baholash	Menejment funktsiyalari va aktsiyadorlik jamiyatining boshqaruv sifatini baholash, uni takomillashtirish yuzasidan takliflar berish. Audit usullarini kengaytirish va takomillashtirish, auditorlik dalillari olish, aktivlar butligini tekshirishning nisbiy va kompyuter usullarini qo'shimcha ravishda rivojlantirish.
	Nazorat faoliyati-ni tashkil etish va boshqarishga nisba-tan yondashuv dara-jasini baholash	Puxta ishlab chiqilgan audit strategiyasi, nazorat tizimining demokratlashuvi, aktsiyadorlik jamiyati darajasida auditorlar faoliyatining qat'iy tartibga solinganligi, auditorlik jarayonining sifatini nazorat qilish.

Demak, ichki audit xizmatining faoliyati ikki yo'nalishdan iborat bo'lib, ularning birinchisi, aktsiyadorlik jamiyati faoliyati natijalarini, ikkinchisi, faoliyat samaradorligini baholashdan iborat.

Ichki auditning asosiy vazifasi, aktsiyadorlik jamiyati boshqaruvi tomonidan taqdim etilgan moliyaviy hisobotlarning haqqoniylik darajasi hamda risklarni daromadlilik darajasi bilan o'zaro bog'liq holda tahlil qilish, aktsiyadorlik jamiyati samaradorligini oshirish maqsadida dasturiy mahsulotlar sifatini huquqiy jihatdan tekshirish va uni takomillashtirish yuzasidan takliflarni aktsiyadorlik jamiyati boshqaruviga taqdim etishdan iborat.

Ichki audit faoliyatini tashkil qilishning ayrim qirralari xorijiy va respublika olimlari A.K.Makalskaya, V.D.Andreev, A.D.Sheremet va V.P.Suyts, X.N.Musaev, B.Hamdamiyov, S.Norqobilov, O.Abdusalomov, A.Abdullaev, B.Xasanov va boshqalarning⁹ ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Mazkur tadqiqot ishlarida ichki auditning mohiyatini ochishga qaratilgan yondashuvlar, xodimlarning me'yoriy hujjatlarga va kasb faoliyati standartlariga rioya etishini nazorat qilish va tomonlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etish masalalari, korxona amalga oshirayotgan operatsiyalarning xususiyatlari va uning faoliyatidagi riskni kamaytirish yo'llarini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan.

Biroq ushbu guruh olimlari yondashuvlarida korxona va tashkilotlarda faoliyat olib boruvchi ichki auditning dastlabki shakllanish jarayonlari tahlil qilinib, bozor munosabatlari sharoitida o'zining mavqeiga ega bo'lgan aktsiyadorlik jamiyati tizimida ichki auditning alohida tutgan o'rniga etarlicha e'tibor berilmagan.

Aktsiyadorlik jamiyatlarida auditorlik faoliyatini tashkil etish, uni amalga oshirishning tegishli tartib-tamoyillari va uslubiyotini takomillashtirish, ichki

⁹ Макальская А.К. Внутренний аудит: Учебно-практическое пособие.- 2 изд., перераб. и доп. – М.: Издательство “Дело и Сервис”, 2001, с. 15; Андреев В.Д. Внутренний аудит: Учебное пособие. - М.: Финансы и статистика, 2003, с. 21; Шеремет А.Д., Суйц В.П. Аудит:- 4-е изд., перераб. и доп. - М.: ИНФРА-М, 2004, с. 34; Musaev X.N. Audit. Toshkent. Moliya, 2003, 22 – b; Hamdamiyov B. Audit iqtisodi.– Toshkent, TMI, 2005, 251 b; Norqobilov S. Abdusalomova O. Banklarda audit: Toshkent, Ma'naviyat, 2005, 176 – b; Abdullaev A., Abduvaxobov O., Qayumov I. Audit asoslari. – Toshkent. 2003, 22 – b; Xasanov B.A., Aliboev Z.A., Zokirova M.Sh. Ichki auditni avtomatlashtirish asoslari. – Toshkent, “FAN”. 2003, 160 - b.

auditni amalga oshirish shakllari, yo'nalishlarini aniqlash, hamda uning boshqa belgilariga ko'ra tasniflashni taqozo etadi. Tadqiqot ishida aktsiyadorlik jamiyatlarida ichki auditning bosqichlaridan kelib chiqqan holda tasniflash belgilari va mezonlari aniqlashtirilgan.

2-jadval.

Aktsiyadorlik jamiyatlari faoliyatida ichki auditning bosqichlari, tasniflash belgilari va mezonlari

Audit bosqich-lari	Tasniflash belgisi		Tasniflash mezonlari
I. Reja-lash-tirish	1. Tekshiruv vaqti		1.1. Rejaga ko'ra 1.2. Rejadan tashqari
	2. O'tkazish turi	2.1. Xujjatli	2.2. Vizual
	3. Tekshiruv turi	3.1 Rejaga ko'ra	3.2 Rejadan tashqari
	4. Uslubiyotiga ko'ra	4.1 Moslik auditi	4.2 Tahliliy tekshiruv
	5. Takroriyligiga ko'ra	5.1 Uzlaksiz audit	5.2 Davriy audit
	6. Tekshiruv yo'nalishiga ko'ra	6.1 Moliyaviy audit 6.2 Boshqaruv auditi	6.3 Xo'jalik auditi 6.4 Ijtimoiy audit
II. Audit-ni olib borish	1. Nazorat ob'ek-tiga ko'ra tekshiruv yo'nalishlari		1.1 Buxgalteriya hisobi tizimi 1.2 Ichki nazorat tizimi 1.3 Boshqaruvning turli bo'g'inlari
	2. Auditorlik tek-shiruvining maqsa-di va hajmiga ko'ra	2.1 Tashkiliy audit 2.2 Funktsional audit 2.3 Maxsus audit	
	3. Auditning yo'nalishlariga ko'ra	3.1 Tashkiliy-huquqiy audit 3.2 Moliyaviy-tahliliy audit 3.3 Kompyuter auditi	
	4. Mulkdor man-faatlari bo'yicha tekshiruvni tashkil etish shakllariga ko'ra	4.1 Moliya-xo'jalik faoliyatining to'liq auditi 4.2 Maxsus audit 4.3 Mufassal auditorlik tekshiruvi 4.4 Balansni hisob-tahliliy tekshirish 4.5 Asoslilik va haqqoniyligini tasdiqlovchi tekshiruv	
	5. Hujjatlarni tekshirishni tashkil etish usuliga ko'ra	5.1 Kompleks audit 5.2 Tanlab tekshirishga asoslangan audit 5.3 Oraliq audit 5.4 Cheklangan audit 5.5 Tizimli audit	
III. Xulosa	Audit natijalarini rasmiylashtirish shakliga ko'ra		1. Oraliq dalolatnoma bilan rasmiylashtirilgan 2. Xulosalar bilan rasmiylashtirilgan 3. Maxsus xulosa bilan rasmiylashtirilgan 4. Axborotnoma bilan rasmiylashtirilgan

Bunda auditning har bir bosqichida uning oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda tekshiruv jarayonini tashkil etish, uning belgilariga ko'ra mezonlardan foydalanish borasida ishlab chiqilgan tavsiyalar audit samaradorligini oshirishga imkon beradi.

O'zbekistonda aktsiyadorlik jamiyatlari ichki audit tizimi faoliyati "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunga, auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi qaror, nizom va auditorlik standartlari kabi me'yoriy hujjatlarga asoslangan bo'lib, ular asosan tashqi auditorlik firmalari uchun mo'ljallangandir. Bunday holat ichki auditning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirish, eng avvalo, uning kontseptual asosini yaratish, baholash mezonlarini ishlab chiqish, ichki nazorat tizimi va usulini shakllantirishni taqozo qiladi.

Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida ichki audit faoliyati samaradorligini oshirishga audit qo'mitasi, tashqi auditorlar, xodimlar mustaqilligi va malakasiga bo'lgan talablar kabi omillar ta'sir ko'rsatadi. Dissertatsiyada ichki audit faoliyatini yuritish majburiy bo'lgan Buyuk Britaniya, Frantsiya va Shveytsariya davlatlari tajribasini o'rganish⁷ asosida prof. M.To'laxodjaeva auditning uslubiyotiga ta'sir qiluvchi omillar guruhini to'g'ri shakllantirilganligi qayd etilgan.

Ammo ushbu omillarni amaliyotga joriy etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilmagan. Vaholanki, ularni amaliyotga tatbiq etilishi ichki audit xizmati faoliyatini samaradorligini oshirishga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, ichki auditorlik faoliyati standartlarining joriy etilishi ushbu tizimning sifat tamoyillarini takomillashtirish, ish samaradorligini oshirish va tashqi auditorlarning ish hajmini kamaytirish imkoniyatini yaratadi.


Aktsiyadorlik jamiyatlarida ichki audit tizimi faoliyatini takomillashtirish maqsadida, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ish olib borishni maqsadga muvofiq deb topdik:

1) aktsiyadorlik jamiyatlari ichki audit xizmati xodimlarining malakasini xalqaro standartlar talablaridan kelib chiqqan holda muntazam oshirib borish;

2) ichki audit xizmati xodimlari o'zlari tekshiradigan bo'linmalarga nisbatan mustaqillik maqomini saqlashlari, aktsiyadorlik jamiyatlari bo'linmalari rahbarlarining o'tkaziladigan tekshiruvlar mazmuni va hajmiga ta'sir ko'rsatishlaridan o'zlarini xoli qilish;

3) auditorlar tekshiruvini olib borishda boshqa fanlardan olingan uslubiy qoidalaridan foydalanish masalalariga ham alohida e'tibor qaratish;

4) ichki audit xizmati xodimlari tekshiruv jarayonini tahlil qilishda ob'ektivlikni ta'minlash va tekshiruv bo'yicha asoslangan xulosalarni tayyorlash.



6-chizma. Ichki auditorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar.

Tekshiruv jarayonini to'g'ri tashkil etish uchun ichki auditorlik standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlarni shakllantirish ichki audit faoliyatini etarli darajada

baholash imkoniyatini yaratadi. Ish samaradorligini oshirish uchun mazkur jarayonda tashqi auditorlar bilan hamkorlikda ish olib borish lozim.

Ma'lumki amaliyotda ichki audit xizmatining pirovard faoliyati faqat amalga oshirilgan tekshiruvlar soni, aniqlangan noqonuniy to'lovlar va talon-taroj qilingan mablag'larning qiymatiga ko'ra baholanmoqda. Shuningdek, tekshiruvlarni o'tkazish muddatlari va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish borasida olib borilgan chora-tadbirlarning qay darajada bajarilayotganligi haqidagi masalalarga ham etarlicha e'tibor berilmayapti.

Ushbularni bartaraf etish maqsadida, ichki audit faoliyati sifati va samaradorligini baholashning uch bosqichdan iborat tizimini yaratish zarur. Birinchi bosqichda auditni rejalashtirish darajasi, tekshiruvni olib borish sifati va tekshirishning belgilangan muddatlariga rioya qilinishi nazorat qilinadi.

Ikkinchi bosqich - bo'linmalarning muayyan davrdagi faoliyati, ish rejasining bajarilish darajasi, uni rejalashtirish, o'tkazish va ichki auditorning bilim saviyasi attestatsiyasi natijalariga ko'ra baholanadi.

Uchinchi bosqichda umuman ichki audit xizmati sifati va samaradorligining umumiy ko'rsatkichi quyidagi o'rta geometrik formula asosida hisoblanadi:

$$ANS = \sqrt[3]{TBR \cdot TJD \cdot RD} (1)^{10}$$

Bu erda:

AHS- auditorlik xizmati samaradorligi ko'rsatkichi;


TBR - joriy yildagi tekshiruv rejasini bajarilishi;

TJD – tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinishi darajasi;

RD – rentabellik darajasining bajarilishi;

Aktsiyadorlik jamiyatlarida joriy qilingan ichki nazorat tizimining to'g'ri tashkil etilganligi risklardan himoya qilinganlik darajasiga, uning samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Aktsiyadorlik jamiyatlari ichki nazorat tizimi qanchalik takomillashgan bo'lsa, boshqaruv tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosining samarasi shuncha yuqori bo'ladi. Ushbu tizimdagi uzilish esa moliyaviy holatga to'g'ridan to'g'ri salbiy ta'sir qiladi.

Shuning uchun ichki audit xizmati aktsiyadorlik jamiyati tomonidan joriy qilingan nazorat tizimini to'g'ri tashkil etilganligi va qo'yilgan maqsadlarga qay darajada erishilganligiga baho berish lozim. Ichki nazorat tizimi faoliyatining moliyaviy hisobotlar ko'rsatkichlariga ta'siri bevosita bo'lganligi uchun ushbu tizim ichki auditning asosiy tekshiruv ob'ekti sifatida namoyon bo'ladi.



7- chizma. Ichki nazorat tizimida auditning tekshiruv ob'ekti va uning tutgan o'rni.

Chizmada ko'rsatilganidek ichki audit xizmati turli xildagi xizmatlarni ko'rsatishda qabul qilingan yo'riqnomalar talablarining to'g'ri bajarilayotganligi va hisobotlarda to'g'ri aks ettirilishini ta'minlaydi. Hamda ichki nazorat elementlari, ya'ni nazorat muhiti, nazoratning tashqi va ichki taqsimoti, nazoratning boshqaruv, moliyaviy, buxgalteriya tizimi, xodimlar va bo'linmalar munosabatlarini, shuningdek maxsus tekshiruvlar natijasida joriy nazorat natijalarini tekshiradi. Bu erda ichki audit direktorlar kengashi uchun ichki nazoratning tarkibiy qismi, boshqaruv uchun mustaqil tizimdir.

III bob. Korxonada ichki audit xizmatini takomillashtirish va unda kompyuter texnologiyalarini qo'llash tartibi

3.1. Ichki audit xizmatini takomillashtirish istiqbollari

Xalqaro ichki auditorlarning professional standartida ichki auditga quyidagicha ta'rif beriladi, -“ichki audit – korxonanai moliya-xo'jalik faoliyatini samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tadbiq etish bilan bog'liq maslaxat xususiyatiga ega mustaqil va xolis faoliyatdir”.

Korxonalarda moliyaviy resurslarni nazoratini quyidagilar amalga oshiradilar, ya'ni ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi maxsus bo'lim, boshqaruv xodimlari va mutaxassislar, bosh buxgalter boshchiligadagi buxgalteriya xodimlari.

Korxonalarda ushbu turdagi nazorat sub'ektlarining mavjudligi bir qancha muammolarga olib keladi.

Birinchidan, nazorat qiluvchi strukturalarning ko'pligi, ular orasidagi ayrim vaziflarni qaytarilishiga olib olib keladi, shu sababdan ular faoliyatlarini koordinatsiyalash lozim;

Ikkinchidan, ichki nazorat bo'limlarini mustaqilligini ta'minlash, ularning funktsiyalarini aniq belgilash hamda ichki xujjatlardagi axborotlar oqimini belgilash lozim.


Ushbu muammolarni xal etishda korxonalarda ichki audit funktsiyalarini yuqoridagi tashkiliy darajalarda taqsimlanishi lozim.

Funktsiyalarni taqsimlash quyidagi tamiyillarga asoslanishi lozim:

1. Raxbariyat darajasidagi ma'lum masalalarni yuqori malakaga ega auditorlar ko'rishi, hamda turli bo'limlardagi auditorlarni rotatsiyasini amalga oshirilishi;

2. Auditorlarni ishtiroki shart bo'lmagan masalalarni yaxshi yo'lga qyilgan axborotlarni oqimi o'z vaqtida foydalanish orqali yuqori tashkiliy darajada xal etish;

3. Katta bo'limlarni tekshirish vaqtida yuqori malakaga ega auditorlar xizmatidan foydalanish lozim.



8-chizma korxonalarda nazoratni amalga oshiruvchi sub'ektlar.

Korxonalarda ichki audit xizmatini tashkil etishda ikkita muammoga duch kelinadi, ya'ni filiallar rahbarlari hamda ijroiya bo'limlari ustidan nazoratni o'rnatish yuzasidan; shu'ba korxonalarni boshqarish tizimini tashkil etish va ularni nazorati yuzasidan.


Bizning fikrimizcha korxonalarda ichki auditning asosiy funktsiyalariga quyidagilarni kiritishimiz lozim:

- **Nazorat funktsiyasi:**
 - a. Moliyaviy resurslarni o'rganish, baholash va ichki nazorat tizimi samaradorligi monitoringini olib borish;
 - b. Qonunchilikka rioya etilishi;
 - c. Moliyaviy hisobotni tuzish va yuritish tartib qoidalariga rioya etilayotganligini;
 - d. Soliq hisobi va hisoboti belgilangan me'yorlar asosida yuritilishi;
 - e. Xolding miqyosida resurslarni shakllanishi, ishlatilishi, va xarakati to'g'risidagi qarorlarni to'g'ri qabul qilinganligin baholash;
 - f. Tashqi auditorlar bilan o'zaro aloqalarni o'rnatish.
- **Tahliliy axborot funktsiyasi:**
 - a. korxonalarni resurslardan foydalanish darajasi xaqida kuzatuv kengashiga axborot berish;
 - b. Moliyaviy resurslar bo'yicha ishlab chiqilgan boshqaruv qarorlarini ekspertizalash;
 - c. Ichki mablag'lar oqimi va ularni manbalarini tahlil qilish;
 - d. Smeta va biznes rejalarni ishlab chiqish va tahlil qilishda ishtirok etish.
- **Maslahat funktsiyasi:**
 - a. Buxgalteriya hisobini yuritishni samarali metodologiyalarni
 - b. Soliqlar va yig'imlarni hisoblash metodologiyalarini ishlab chiqishda (tahlil qilishda) ishtirok etish;
 - c. Boshqaruv axborotlar tizimini takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish;
 - d. Ichki audit vakolatiga doir bo'lgan masalalar yuzasidan bo'limlarga maslahatlar berish.

Ichki audit xizmati bo'limining ish faoliyatini samaradorligi uning oldiga qo'yilgan maqsad, vazifalar va funktsiyalarni qay darajada bajarganligiga qarab baholanadi.

Korxonalarda ichki audit xizmatining tuzilishini quyidagi maqsadlardan kelib chiqqan xolda tashkil etish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

1) Ichki audit xizmati korxnaning strategiyasini amalga oshirishga yo'naltirilganligiga;



9-chizma Ichki audit xizmatining samaradorligi.

- 2) Ichki audit xizmatining ko'p funktsionalligini ta'minlash;
- 3) Ichki audit xizmatining qo'llaydigan metodlari korxona qo'llaydigan xisobni xususiyatlariga mosligi;
- 4) Ichki audit operatsiyalarini o'z vaqtida amalga oshirilishi;
- 5) Ichki auditni tuzilishini soddaligi;
- 6) Ichki auditni tejamkorligi.

Yuqorida keltirilgan tamoyillarni amaliyotda qo'llash natijasida korxonalarda moliyaviy resurslarni shakllanishi, ularni ishlatish, hisobni to'g'ri tashkil etilganligini baxolashga hamda kapital tarkibini taxlil qilish imkoinini beradi.

Ichki audit bo'limi har doim ham xo'jalik yurituvchi sub'ektga to'g'ri va aniq ma'lumotlarni ola-olmasligi va natijada noto'g'ri xulosa va takliflar berishi

mumkin, chunki xolding kompaniyalarini moliyaviy hisoboti ma'lum davrga etarli ma'lumotlarni o'zida aks ettirmasligi mumkin.

Ichki audit xizmati xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisobotini tahlil etadi, kelgusi rivojlanish yo'nalishini aniqlaydi va rahbariyatga qaror qabul qilishga yordam beradi. Umuman, ichki audit natijalari xo'jalik yurituvchi sub'ekt ichidagi boshqaruvning takomillashuviga ta'siri kattadir.

Respublikamizda ichki auditning shakllanishi uchun qonunchilik bazasini takomillashtirilishi hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarning pishiq-puxtaligiga va ularni amaliyotga tatbiq eta olinishiga erishish lozim.

Bizningcha, ichki auditni avtomatlashtirish (kompyuterlashtirish) auditorlik ishining samarasini oshiradi, ikkinchi tomondan esa nazorat-maslahat tizimini yaratish imkonini beradi. Ichki auditni avtomatlashtirish (kompyuterlashtirish) jarayonida quyidagi elementlarga alohida e'tibor qaratish lozim deb o'ylaymiz:

- Audit jaryonini aks ettiruvchi iqtisodiy matematik, iqtisodiy-tashkiliy va axborot modellariga;
- Modellarni amalga oshiruvchi texnik, programma, axborot va boshqa vositalarga.

Bizningcha, xo'jalik yurituvchi sub'ektlari faoliyatini boshqarishda ichki audit funktsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, O'zbekistonda «Ichki auditorlarning ahloqiy me'yorlari», ichki auditni o'tkazish standartlarini ishlab chiqish va qabul qilishi zarur, shuningdek ichki auditni faoliyat shakli sifatida qonunda mustahkamlab qo'yish kerak.

Ichki audit ish hujjatlarini jalb etish tajribasi, shuningdek tashqi auditga bevosita yordam ko'rsatish uchun ichki auditorlarning o'zlarini jalb etish tajribasi kengayshi munosabati bilan ichki audit bahosi mezonlarini aniqlash zaruriyatini tug'diradi. Bizningcha, bunday mezonlar ichki auditning etik qoidalari va kasb (mutaxassislik) standartlarida bo'lishi kerak. Ularga rioya qilish ichki auditning yuqori sifatini kafolatlaydi.

Xulq-atvor etik me'yorlari bir kasbdagi odamlarni birlashtiradi, ularga rioya qilish jamoada sog'lom muhit yaratadi, mutaxassislikning oliy darajasi va kasbning oliy ijtimoiy bahosini ta'minlaydi. Auditorning etik kodeksi tegishli tavsiyalar beradi, xulq-atvor mezonlarini aniq belgilaydi. Muayyan kasb nuqtai-nazaridan etika kodeksi- bu barqaror me'yorlarni bajarishga yordam beruvchi xulq-atvorning barqaror me'yorlari bayonnomasidir. Bizningcha, busiz mutaxassislik intizomi bo'lishi mumkin emas. Ko'plab chet el mutaxassislik tashkilotlari yil oxirida o'z a'zolariga mutaxassislik xulq-atvor me'yorlariga rioya qilish to'g'risida og'zaki yoki yozma hisobot taqdim etishni buyuradilar. Mazkur kasb tevaragida kasb faoliyati standartlari mavjud bo'lgandagina ko'rsatilayotgan kasb hujjatlarining oliy darajadagi sifatiga ishonsa bo'ladi. O'zbekistonda ham mutaxassislik tashkilotlari yil oxirida o'z a'zolariga mutaxassislik xulq-atvor me'yorlariga rioya qilish to'g'risida og'zaki yoki yozma hisobot taqdim etishni buyurishni tashkil qilish lozim deb o'ylaymiz.

Bizningcha, ichki audit standartlari ichki audit sifati va ishonchliligiga bo'lgan me'yoriy talablarni belgilovchi va ularga rioya qilgan holda ichki auditor faoliyati natijalari kafolatining muayyan darajasini ta'minlovchi yagona asosli talablarni shakllantiradi. Ichki audit etika Kodeksi va standartlari ichki auditorlar faoliyatini boshqarishning oliy organi tomonidan qabul qilinishi kerak. Chet elda masalan, 1941 yilda AQShda tashkil etilgan, hozirgi vaqtda butun dunyo bo'yicha 180 bo'limiga ega bo'lgan ichki auditorlar Xalqaro instituti ana shunday organ hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining tijorat tuzilmalari hozirgi bosqichida iqtisodiyotning tizimli bo'hroni sharoitlarida bu xildagi tashkilot yaratishning qulayliklarigina yuzaga kelmoqda O'zbekiston Respublikasi ichki audit tiklanishining boshlang'ich bosqichida kasb etika Kodeksi ham, ichki audit kasb faoliyati Standartlari uchun joylardagina, ya'ni ichki audit xizmati bor bo'lgan har bir alohida xo'jalik yurituvchi sub'ektda ishlab chiqarilishi kerak. Bundan keyin Respublikamizda Rossiya va AQSh dagidek institutni tashkil etish chog'ida bu qoidalar markazlashgan tartibda ishlab chiqilishi lozim. Shubhasiz, ichki audit etika

Kodeksi va Standartlarini ishlab chiqarish chog'ida chet ellik hamkasblar tajribasiga tayanish mumkin. Biroq u to'la ravishda O'zbekiston uchun "oliy namuna" bo'la olmaydi va shu boisdan tanqidiy jihatdan baholanishi va qayta ishlab chiqilishi kerak. Shunga ergashgan holda biz ichki audit etika Kodeksi va kasb standartlarni ishlab chiqish uchun asos bo'la oladigan qoidalarni taklif etmoqdamiz. Chet ellik mutaxassislar tajribasi tahlili o'tkazilgan va qayta ishlab chiqilgan hamda yirik va o'rta Respublikamiz tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlari ichki nazorati (shu jumladan ichki audit xizmatlari) tizimlari faoliyatiga amaliy tadqiq qilingan. Taklif etilayotgan qoidalar- bu vatan ichki auditi me'yoriy-huquqiy bazasi va tegishli xo'jalik yurituvchi sub'ekt ichidagi reglamentlarni ishlab chiqish uchun "jo'natuv nuqtasi"dir. Ichki audit xizmatiga ega korxonalar tashqi auditorlarning bevosita yordamida ichki audit etik kodeksi va kasb standartlarini ishlab chiqishlari va bundan keyin ulardan uning samaradorligini baholash uchun baza sifatida foydalanishi kerak. Ichki audit bo'linmasi maqsadlari, vakolatlari va ma'suliyati majmui (bo'limi haqidagi qoida) mazkur standartlar va etik talablar asosida shakllantirilishi kerak.

Har qanday etika Kodeksi xulq-atvorining barcha mutaxassislar intiladigan oliy shakllarini tavsiflovchi umumiy ta'riflardan va xulq-atvorining har bir mutaxassis bajarishi majbur bo'lgan muayyan qoidalaridan tashkil topadi. Ichki auditorlar kasb etikasi Kodeksi ichki audit etik tamoyillaridan va ichki auditorlar xulq-atvori bo'yicha asosiy qoidalaridan tashkil topishi kerak.

O'zbekistonda ichki audit tashkil etilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki auditni amalga oshirish bosqichlarini yorituvchi quyidagilar standartlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'lardi:

- "ichki auditni rejalashtirish";
- "ichki audit ob'ekti holati haqidagi axborotni tahlil qilish va baholash, tizimlashtirish, hujjatlashtirish, to'plash amallarini o'tkazish";
- "ichki audit natijalari bo'yicha hisobot";

➤ “ichki audit natijalarini manfaatdor shaxslar e’tiboriga havola etish va shundan keyingi amallar”.

“Ichki auditni rejalashtirish” standartida ichki audit rejalari va dasturlarini tuzishga bo’lgan eng umumiy talablar ko’rsatilishi kerak.

“Ichki audit ob’ekti holati haqidagi axborotni tahlil qilish va baholash, tizimlashtirish, hujjatlashtirish, to’plash amallarini o’tkazish” standarti audit xolisligining barqaror ekanligi va audit maqsadlarining bajarilayotganini etarli darajada kafolat bilan ta’minlashi kerak. Axborot ichki audit predmeti, vazifalari va hajmiga daxldor barcha masalalar bo’yicha to’planishi kerak. Auditorlik xulosasi va tavsiyalari uchun mustaqil asosni ta’minlash maqsadida axborot zaruriy, etarli, haqqoniy, o’z vaqtidalik, tahliliy va tashkiliy bo’lishi kerak.

“Ichki audit natijalari bo’yicha hisobot” standarti ichki auditorlar hisobotini tuzish va taqdim etish tartibini belgilab qo’yishi kerak. Tashqi audit hisobotidan farqli ravishda ichki auditorlar uchun hisobotlarni bevosita korxonaning o’zida ishlab chiqarilgan forma bo’yicha tuziladi. Hisobotlarga bo’lgan asosiy talablar-xolislik, aniqlik, lo’ndalik, ishchanlik va o’z vaqtidalik. Ichki auditorlar hisobotida qo’yilgan masalalar boshqaruvchidan barcha qoidalar va tavsiyalarga yozma javob kelmagunga qadar “ochiq” qoladi. Hisobot davri oxirida boshqaruv organlariga ichki auditorlar faoliyati haqidagi yakuniy hisobotlar, ularda ichki audit turlari va uchastkalari bo’yicha haqiqiy ish mo’ljaldagi ish bilan, haqiqiy xarajatlar moliya bilan ta’minlash byudjeti bilan taqqoslanishi kerak, bo’lim ishidagi kamchiliklar, ularning sabablari va ularni bartaraf etishdagi chora-tadbirlar ko’rsatilishi kerak.

“Ichki audit natijalarini manfaatdor shaxslar e’tiboriga havola etish va shundan keyingi amallar” standarti tekshirishlar natijalari ichki audit buyurtmachilari e’tiboriga etkazish tartib va shakllarini belgilab qo’yishi kerak, Standartda shu narsa kerakki, ichki auditorlar so’ngi davrlarda tekshirishlar natijalari bo’yicha barcha zaruriy amallar bajarilganligi (tuzatishlar, boshqaruv tizimini takomillashtirish va hakoza) va ko’zlangan natijalarga erishilganmi-yo’qligini belgilab qo’yishi kerak.

Ichki auditning kelajakda rivojlantirish xorijiy tajribalarga tanqidiy nuqtai nazardan yondashish, nazariya sohasida chuqurlashtirilgan tadqiqotlarga erishish va avvalo, auditning mazkur turi kontseptsiyasini ishlab chiqishni talab qiladi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatida ichki auditning mazmuni va maqsadlarini aniqlash darkor. Agar ilgari ichki auditorlik faoliyati retrospektiv xarakterga xos va me'yoriy hujjatlarga muvofiq amalga oshirilgan hamda moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarini aks ettirishning ishonchligini tekshirishga yo'naltirilgan bo'lsa, endilikda buning o'zi etarli emas. Mulk egalari axborotdan foydalanuvchilar auditoridan iqtisodiy qarorlar qabul qilishga, biznes ekspertiza va turli xil moliyaviy masalalar bo'yicha vakolatli maslahat olishga umid qiladilar. Shu sababli, ichki audit kontseptsiyasi biznesning rivojlanishiga bog'lanishi zarur.

Audit mazkur tadbirkorlik riskini aniqlash va xo'jalik yurituvchi sub'ektni rivojlantirish istiqbollarini ochib berishga yo'naltirilgan xarakterga ega bo'lishi lozim. Ichki auditorlarning maslahatchilar sifatidagi rolini oshirish talab qilinadi, chunki ular mazkur tarmoq va undagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining o'ziga xos xususiyati haqida eng to'liq axborotga ega bo'ladi.

Ichki audit o'z maqsadlariga erishishda tashkilot uchun juda katta xarajatlar bilan bog'liq bo'lmasligi, dalillar xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy holati va haqida fikrni shakllantirish uchun etarli darajada to'planishi, hisobga olish jarayonida yaratilgan axborotlar qimmatini oshirishi, sog'lom fikrga asoslanishi zarur deb o'ylaymiz.

3.2. Ichki audit xizmatida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish

Ichki audit tashqi auditdan farqli ravishda korxona xodimlari maxsus bo'lim yoki boshqarma tomonidan amalga oshiriladi. Ichki audit korxona moliyaviy holatining, xarajatlar manbaining, boshqarish tizimini tashhishtashning, zahiralarni aniqlashning ichki xo'jalik nazorati uchun qaratilgan bo'lib, u rahbariyatni korxona iqtisodining samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar bilan ta'minlaydi.


Ichki audit xizmati korxonaning hisobotini tahlil etadi, kelgusi rivojlanish yo'nalishini aniqlaydi va rahbariyatga qaror qabul qilishga yordam beradi. Kontrolning alohida korxona miqyosida rejalashtirish, hisob, marketing, mahsulotini yaratish ishlarini umumlashgan holda qaraydi.

Auditorlik faoliyatini kompyuterlashtirish zamonaviy informatsion texnologiyalarga asoslangan bo'lib, u nafaqat auditni amalga oshirish uchun vaqtni va vositalarni tejashga, balki qo'lda hisoblab topish murakkab bo'lgan axborotni ham olish imkonini beradi. Bu axborotlar avvalom bor korxona strategiyasi, xo'jalik-moliyaviy holatini yaxshilash yo'llari va vositalariga tegishlidir. Kompyuterlashning hisoblash imkoniyatlaridan foydalanish o'tgan davr axborotlariga asoslanib hisobot davrida rahbariyat qanday yo'l tutish kerakligi, hisobot davri axborotiga asoslanib esa kelgusida qanday harakat kilish kerakligini aniqlash imkoni bo'ladi. Bu axborot korxona va tashkilotlar rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan qarorga ob'ektiv baho berish uchun asos bo'ladi.

Hisob tizimini va hisobotni tashkil etishni nazorat etish auditorlardan turli ko'rsatkichlarni hisoblashni soliq stavkalarini, koeffitsientlarini, qonuniy hujjatlarni va turli me'riy hujjatlarni bilishni talab etadi. Shuningdek hisob yuritishda turli ko'rsatkichlarni hisoblash amallarini bilishni talab etadi. Audit jarayonini avtomatlashtirish esa auditorlik ishini samarasini oshiradi. Ko'plab me'yoriy-ma'lumotnoma axborotlarini kompyuter xotirasida saqlash bir tomondan auditorning imkoniyatlarini oshiradi, ikkinchi tomondan esa nazorat maslahat tizimini yaratish imkonini beradi.

Auditorlik faoliyatini kompyuterlashtirish tizimini quyidagi komponentlardan tashkil topgan bo'ladi:

- audit jarayonini aks ettiruvchi iqtisodiy matematik, iqtisodiy-tashkiliy va axborot modellaridan;
- modellarni amalga oshiruvchi texnik, programma, axborot va boshqa vositalardan.



10-chizma. Ichki auditni kompyuterlashtirish tizimini komponentlar

Bunga ko'ra kompyuter tizimini funktsional va ta'minot qismlaridan iborat bo'ladi. Funktsional qismi auditni bajarishda ishlatiladigan axborotlar va matematik modellarda, standartlarda, me'yorlarda v.b.da aks etgan usullardan, uslubiyatlardan va ko'rsatmalardan tashkil topgan.

Ta'minot qismi esa audit funktsiyasini amalga oshirishga qaratilgan informatsion, programma, texnik va boshqa ta'minotlardan iborat bo'ladi.

Kompyutar tizimining funktsional qismini kengroq qaraydigan bo'lsak, u funktsional quyi tizimlardan va ma'lum belgilar bo'yicha ajratilgan kompleks masalalardan iborat bo'ladi, masalan:

- audit turi bo'yicha (tashqi, ichki);
- audit funktsiyasi bo'yicha (nazorat-taftish, baholash-maslahat, maslahat-prognozlash v.h.k.);
- audit uchastkasi bo'yicha (hisob xodimlari, hisob tizimi, hisobot hujjatlari, administratsiya va h.k.);

Ichki audit masalasi quyidagi ikkita kompleksga bo'linadi:

«Hujjatlar» (hisob tizimini va hujjatlarni baholash)

«Maslahat berish» (korxonani tashhishlash va keyingi davrdagi harakati uchun ko'rsatmalar berish).

«Hujjatlar» kompleksi moliyaviy xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya hujjatlari va hisobotlarida to'g'ri aks ettirilganligini tekshirishga mo'ljallangan. Bu kompleks «Personal» va «Hisobot» kompleksi masalalarini ham o'z ichiga oladi.

«Personal» kompleksi korxonadagi moliyaviy-xo'jalik hisobi tizimini baholash uchun, shuningdek, hisob xodimlarining qasddan yoki tasodifiy qilgan xatolarini aniqlash uchun qaratilgan. Kompleksga ikki turdagi masalalar kiradi. Birinchisi korxona balansining u yoki bu statyasiga tegishli bo'lgan buxgalteriya hujjatlarini tekshirishga qaratilgan. Shuning uchun auditor hohishiga ko'ra hisobdagi ma'lum bir yo'nalish tanlab olinadi. Ma'lum statya bo'yicha hisob operatsiyalarini to'g'ri aks ettiradigan hujjatlarining taxlili masala deb yuritiladi. Har bir masala echimi hujjatlarini quyidagi tartibda tekshirish imkonini beradi:

birlamchi hujjatlar;

jurnal-order va yig'ma vedomostlar;

bosh kitob;

korxona balansi.

Kompleksning ikkinchi qismi moliyaviy operatsiyalar auditi uchun mo'ljallangan bo'lib, ular quyidagicha klassifikatsiyalangan;

asosiy vositalar auditi;

valyuta mablag'lari hisobi va hisob-kitob operatsiyalar auditi;

korxona mablag'lari manba'lari auditi;

ishlab chiqarish harajatlari va mahsulot tannarxi kalkulyatsiya auditi;

mehnat hisobi va ish haqi auditi.

Agar xato aniqlangan bo'lsa, uning sababini aniqlash lozim (qasddanmi, tasodifiymi yoki hisob tizimi sababli (iz'yani)). Xatoning sababini mutloq aniq ta'kidlash xatarliroq. Shuning uchun ishonch koeffitsientlaridan yoki noaniq mantiq nazariyasining ishonch o'lchovlaridan foydalanish mumkin.

Bu koeffitsientlar xatoliklarning xarakteristikasi 0 dan 1 gacha bo'lgan shkalada baholash imkonini beradi.

Tekshiruv natijalari maxsus fayllarda saqlanadi va tizim ishi oxirida auditorlik xulosasi uchun foydalaniladi.

Kompleksning ishlashi nazorat-maslahat tizimi tamoyiliga asoslangan bo'lib, bu kiritiladigan axborot hajmini keskin kamaytirish imkonini beradi va demak, ishning narxini kamaytiradi, ammo ikkinchi tomondan esa hisob tizimida xatoga yo'l qo'yish xavfini vujudga keltiradi. Buning sababi hisob personali harakatini to'liq emas, tanlab tekshirish ekanligi.

“Hisobot” kompleksi korxona hisobotining to'g'ri tuzilganligi va haqqoniyligini tekshiradigan masalalarni o'z ichiga oladi.

Unga asosan quyidagi masalalar kiradi;

- hisobot hujjatlari ko'rsatkichlari mosligini tekshirish;
- hisob-kitobning to'g'riligini tekshirish.

So'nggi masala o'z navbatida auditorni qiziqtiradigan bir necha quyi masalalarga bo'linishi mumkin.

Birinchi masala maxsus test jadvallari, tekshirish qoidalari, standartlar va me'yorlar yordamida echiladi.

Jadvallar ko'rsatkichlar provodkalar, hisob registrlari yozuvlari orasidagi arifmetik va mantiqiy bog'liqliklarni o'z ichiga oladi.

Qoidalar ekspertning bilimi asosida tuziladi va hisob personali harakatini tekshirishdagi auditor bajaradigan ishlar ketma-ketligini aks ettiradi. Standart va me'yorlar audit qilinadigan ko'rsatkichlarning chegaraviy qiymatlarini (solih stavkalari, kredit foizlari va h.k.) ifodalaydi. Xatoliklar sabablari turlicha bo'lishi mumkin; hisob operatsiyalarni bajarishda etarlicha e'tibor berilmaganligi, yoki qasddan faktlarni o'zgartirish, yoki hisobning noto'g'ri qo'yilganligi.

Ichki auditda informatsion baza korxonada tadbiiq etilgan hisob quyi tizimlariga tegishli bo'lganligi uchun na faqat nazorat-maslahat tizimini ishlatish, balki barcha buxgalteriya hujjatlarini to'liq tekshirish mumkin.

Ichki auditda asosiy vazifa ikkinchi kopleksga – “Maslahat berish”ga yuklanadi. B kompleks korxona hisoboti asosida uning kelgusi taraqqiyoti

yo'nalishlarini aniqlaydi va iqtisodiy xarakterga ega bo'lgan boshqaruv echimlarini qabul qilishga yordam beradi.

Kompleks quyidagi masalalardan tarkib topgan bo'ladi:

- moliyaviy holatini kompleks tashhislash;
- rentabellikni tashhislash;
- moliyaviy-mulkiy holatini tashhislash.

Har bir masala tashhisni ikki bosqichda, ya'ni lokal va umumiy bosqichlarni bajaradi. Lokal tashhislash ayrim "tor" joylarni aniqlash imkonini bersa, umumiysi butun korxona uchun ko'rsatma beradi. Ikkala holda ham ko'rsatmalar qisqa yoki batafsil tarzda bo'lishi mumkin. Tashhislashning lokal va umumiy bosqichlari mazmunini qaraylik.

Lokal tashhislash iqtisodiy holatini yomonlashtiradigan alohida omillarni aniqlash imkonini beradi va ularni tuzatish yo'llarini ko'rsatadi. Bu bosqichning afzalligi bir tomondan sistemaning ishlashidagi nisbatan oddiylik bo'lsa, ikkinchi tomondan natijalarining aniqligidir.

Umumiy tashhislash lokal tashhislashda aniqlash mulkiy bo'lmaganlarning bilvosita sabablarini yoki umumiy qabul qilinadigan me'yorlarni qanoatlantiradigan, ammo boshqa me'yorlar bilan birgalikda amal qilganda korxona holatini yomonlashuviga olib keladigan sabablarni aniqlashdan iborat. Bunda ham lokal tashhislash kabi tizim tomonidan bu bosqichda beriladigan ko'rsatmalar qisqa yoki batafsil xarakterga ega bo'ladi. Berilgan shakl foydalanuvchining hohishiga ko'ra, shuningdek hisob talabiga ko'ra bo'lishi mumkin.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, tashqi auditni kompyuterlashtirish tizimi ichki audit tizimidan funktsiyalari va axborot manbalari bilan va eng asosiysi foydalanuvchilari bilan farq qiladi. Tashqi auditga mo'ljallangan tizim tekshiriladigan korxonaning umumiy standartlari va qoidalarini hisobga olishi kerak. Bular korxonaga tashqaridan keladi va ma'lum umumiy xususiyatiga ega bo'ladi. Bundagi muammo tashqi auditni bajaradigan kompyuter tizimining

korxonada mavjud bo'lgan programmalar vositasi muhitiga (operatsion tizimi, servis vositalari va h.k.) mos kelishidir.

Ichki auditni kompyuterlashtirish tizimi esa, aksincha, u aynan ushbu korxona uchungina yaratilgan bo'lib, uning hisob xususiyatlarini, moliyaviy va boshqa ko'rsatkichlarini hisoblashni aks ettiradi. Masalan, rentabellik turlicha usullar bilan hisoblanadi, ammo, bu korxonada aniq bir usul qo'llanishi mumkin. Tashhislash va ko'rsatmalarni berish ham mahsus tarzda amalga oshirilishi mumkin. Bular korxonaning rahbariyati qo'ygan maqsad va masalalarni ifodalaydi.

Maqsad va masalalar esa korxona rahbariyati belgilangan ekspertlar tomonidan shakllantirilgan va ular bilan kelishilgan holda qo'llanishi mumkin. Shuning uchun bu tizimni turli korxonalarga moslashtirish bir muncha murakkab va muammoli bo'ladi.

Ichki auditga risk va tizimli yo'naltirilgan tekshiruv usullarini asos qilib olish zarur. Bu shuni anglatadiki, auditor ularni o'tkazishda xatolar riski eng yuqori bo'lgan hisobot moddalari yoki hisobga olish sohalari bilan mashg'ul bo'ladi. Har tomonlama yalpi tekshiruvlar faqat firibgarlik yoki suiste'mol holatlari aniqlangan hollardagina amalga oshiriladi. Operatsiyalarni tanlama kuzatish doim ham to'liq auditorlik dalillarini taqdim etavermaydi, shuning uchun tahliliy auditorlik dasturlari tobora ko'proq ahamiyat kasb etishi lozim. Auditorlar shuningdek korxonada ro'y berayotgan jarayonlarnigina emas, balki atrof-muhit va u bilan bog'liq risklarni ham ko'rib chiqishlari zarur. Xo'jalik faoliyati risklari va tarmoqning iqtisodiy sharoitlariga yo'naltirilgan auditorlarning ixtisoslashuv darajasi yuqori bo'lishi hamda tekshiruvlarda rahbariyat va mutaxassislarning ishtirok etishini talab qiladi. Shu sababli ichki audit xizmati auditorlik jarayonlari, soliq va buxgalteriya qonunchiligidan xabardor, EHM uchun dasturiy mahsulotlar bo'yicha bilimlarga ega, tarmoq ichidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish uslubiyati, xo'jalik yurituvchi sub'ekt boshqaruvi masalalari bo'yicha konsalting elementlari bilan ta'minlangan mutaxassislardan tarkib topishi lozim.

Korxonalarda ichki audit xizmati xodimlari asosan birlamchi hujjatlar bilan ishlaydilar va aniqlangan kamchiliklarni o'z xulosalarida aks ettiradilar. Shuni qayd qilish lozimki, amaliyotda korxona me'yoriy hujjatlarida ushbu birlamchi hujjatlarni tahlil qilishning maqsadi, dalillarni to'plash uslublari va ularning manbalari to'g'risidagi ma'lumotlar etarlicha yoritilmagan. Xususan audit jarayonida shakllantirilgan ish hujjatlari tegishli birlamchi hujjatlar bilan bog'langan xolda ko'rsatilmagan va audit dalillariga e'tibor qaratilmagan. Vaholanki, ushbu bog'liqlik auditorlarning asosli xujjatlardan foydalanganligini tasdiqlovchi dalil bo'lib xizmat qiladi.

Auditorlik dalillari audit mezonlarini tekshirish va auditorlik ma'lumotlarini tasdiqlovchi axborot bo'lib, audit ish hujjatlarining ishonchililik darajasini oshirish uchun xizmat qiladi. Zero, dalillar odatda bevosita va bilvosita xususiyatga ega bo'lib, muayyan hodisa sodir bo'lganidan keyin olinadi va ishonarli xususiyatga ega bo'ladi.

Auditorlik xulosalarini tayyorlashda dalillar tekshiruvga taalluqli va asosli bo'lishi kerak, shuning uchun ham axborotning ishonchliligiga bo'lgan talablarga rioya qilish auditorlik tekshiruvining barcha bosqichlarida ta'minlanishi zarur. Buning uchun auditorlik dalillarini ish hujjatlarida aks ettirish jarayonida:

- tafsilotlarga qaraganda ishonchliroq miqdoriy ko'rsatkichlardan foydalanishlari;
- pirovard ko'rsatkichlarga nisbatan hisoblangan natijalarga erishishlari;
- sof keltirilgan qiymat, korxonadagi daromad me'yori, foizda taqqoslash mumkin bo'lgan va ayni turga mansub o'lchov birliklari hisoblangan ko'rsatkichlarni tahlil qilishlari;
- hisobotdan foydalanuvchilar tushunishi oson bo'lgan natijalarga erishish imkonini beradigan texnik usullardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Tekshirish jarayonida olingan, qayta ishlangan barcha ma'lumotlar ichki auditorlik standartlari talablariga muvofiq o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra guruhlanishi audit sifatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hujjatlarni to'g'ri shakllantirish

audit jarayonini rejaga ko'ra amalga oshirilganligini va xulosalar dalillarga asoslanganligini baholash imkonini beradi.

Shuning uchun tekshiruv jarayonida o'rganilgan hujjatlar to'plami mohiyatiga ko'ra tahlil etilishi, tizimga solingan va izchil tuzilishga ega bo'lishi kerak. Bunday talab auditorlik ish hujjatlarini mantiqiy va oson kuzatiladigan indekslar yordamida belgilashni, ulardagi ahamiyatga molik ko'rsatkichlarni alohida ish hujjatlarida umumlashtirilishini taqozo etadi.

Ichki audit xizmatining har bir tekshiruv jarayoni yakunida audit nizomi talabalariga ko'ra auditorlik xulosasining umumlashtirilishi va uning asosida xulosalar tayyorlanishi talab qilinadi. Ma'lumki ichki audit xizmati tomonidan tayyorlangan xulosalar o'z mohiyatiga ko'ra tuzilgan dasturda ko'zda tutilgan savollarning javobini qamrab olgan. Shuningdek, xulosalarda o'rganilgan yo'nalish va hujjatlar turi, sanasi, kamchiliklar ko'lami va uni tayyorlagan xodimlar ro'yxati ketma-ketlikda berilgan.

Bozor munosabatlari sharoitida ichki auditning asosiy maqsadi, nafaqat nazorat kamchiliklarini aniqlash, balki ularning kelib chiqish manbalarini tahlil qilish va boshqaruv vazifalarini qay darajada bajarayotganligiga baho berishdan iboratdir. Auditorlar boshqaruv zimmasiga yuklatilgan vazifalar xususidagi fikrlarini o'z xulosalarida yoritishlari lozim.

Bunda ichki audit xizmati tomonidan me'yoriy hujjatlarning noto'g'ri talqin qilinishi yoki ichki nazorat tizimi faoliyatida nomutanosibliklar xosligini inobatga olib, miqdoriy ko'rsatkichlarini uning sifat ko'rsatkichlari bilan taqqoslash zarur.

Shunday qilib, ichki audit xizmati xodimlari olingan ma'lumotlarni mavjud tizim faoliyatini o'rnatilgan me'yoriy hujjatlar va moliyaviy hisobotlar bilan taqqoslagan holda korxona boshqaruvi zimmasiga yuklatilgan vazifalar qay darajada bajarilayotganligi borasidagi fikr-mulohazalarini o'z xulosalarida aks ettirishlari zarur.

Xulosa

Iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida mulkchilikning xilma-xil shakllarining vujudga kelishi hamda xo'jalik yuritishning zamonaviy usullarining joriy etilishi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki auditni tashkil etish borasida muammolarni vujudga keltirdi. Bugungi kunning talabi nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, asosiy e'tibor xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda audit borasidagi muammolarni bartaraf etish hamda bu boradagi ishlarni takomillashtirishga qaratilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, u yoki bu shakldagi tekshirishni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun ichki audit xizmatini tashkil qilish va ichki audit xizmati ishlarining samaradorligini baholashni aniqlash juda zarur bo'lib hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida bir qator omillarning ijobiy va salbiy ta'siri ostida bo'ladi. Omillarning salbiy ta'siri birgalikda ijobiy ta'sirni yo'qqa chiqarishi va aksincha bo'lishi mumkin. Xo'jalik sub'ekti faoliyat sohasini belgilab beruvchi ushbu omillarga moslashishga majburdir. Omillarning har qanday tavsifi muayyan maqsadlarga xizmat qiladi. Bozor sharoitlarida korxona bir vaqtning o'zida iqtisodiy munosabatlarning ham sub'ekti, ham ob'ekti bo'lib harakat qiladi, tegishlicha, u turli omillarning dinamikasiga ta'sir qilish imkoniyatlariga ega. Shundan kelib chiqib, korxonalarning boshqaruv xodimlari ishini tashkil qilishga, ularning kasbiy mahoratiga bog'liq ichki omillar ta'sirida dinamik rivojlanishi tendentsiyalarini e'tibor qaratilsa, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy barqarorligining ichki omillariga aktivlarning holati va ularning aylanuvchanligini, moliyaviy resurslarning tarkibi va nisbatini, moliyaviy resurslarning paydo bo'lishi manbalarini kiritadi.

Ichki audit xizmatini tashkil etish va uni takomillashtirish quyidagi xulosa va takliflarga keltirib o'tdik:

- Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki auditning maqsadi, korxona xodimlarining qonuniy va me'yoriy hujjatlarga va kasb faoliyati standartlariga

rioya etishni nazorat qilish, tomonlar manfaatleri o'rtasidagi nizolarni bartaraf etish, xo'jalik yurituvchi sub'ekt amalga oshirayotgan operatsiyalarning xususiyatlari va qo'lamlariga mos ishonchlilikni ta'minlash hamda xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatidagi xatarlarni kamaytirish yo'llaridan iboratdir.

- Aktsiyadorlik jamiyatlarida barcha aktsiyadorlarni huquqlarini tengligini ta'minlagan holda, ularga xizmat qiladigan ichki audit xizmati xodimlarining ob'ektivligi va mustaqilligini ta'minlash lozim.

- Mulkdorlar va investorlarni qiziqtirgan bir savol mavjud bu ham bo'lsa, moddiy boyliklarining ahvoli va ulardan samarali foydalanilayotganligi, eng keraklisi undan qancha daromad olayotganligi qiziqtiradi. Ushbu holatdan kelib chiqib, ichki audit o'z tekshirishlari natijasini doimiy ravishda investorlarga ham oshkor etib borishi lozim, bu esa aktsiyadorlarning axborotlar olishini ta'minlaydi.

- Ichki audit xizmati xodimlarini doimiy va barqaror ishlash uchun kuzatuv kengashi tomonidan imtihonlar, seminarlar va kerak bo'lsa o'zaro bahs munozaralar olib borishni tashkil etish, ichki auditor tomonidan aniqlangan kamchiliklar va suistimolliklardan kelib chiqib, ularga moddiy jihatdan rag'batlantirishlar olib borish va shu asosda kuzatuv kengashi tomonidan fond ajratilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

- Aktsiyadorlik jamiyatlarida ichki nazorat tizimini samarali yuritilishida ichki audit xizmatining ko'lamini oshirish va uni baholash, ular tomonidan diomiy nazoratda turishini ta'minlash zarur.

- Ichki auditorlik standartlarini hamda ichki auditorlarning axloqiy talabini me'yoriy xujjatlarga mos kelgan holda ishlab chiqish va amalda tadbiq etish lozim.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, yuqorida keltirilgan aktsiyadorlarni huquqini ham himoya qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Aktsiyadorlik jamiyatlarida ichki audit xizmatini mukammal joriy etsak, korxonalarining moliyaviy xo'jalik faoliyatini to'g'ri va ishonarli yuritish, aktsiyadorlarga dividend

to'lash tizimi, qimmatli qog'ozlar bozorini takomillashtirish, korxonalarning moliyaviy barqarorlikka erishishi hamda mamlakatimizda aktsiyadorlik jamiyatlarining samarali faoliyat yuritishida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2003.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – T.: Adolat, 2008.
1. O'zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi Qonuni (yangi tahriri) 2000 y. 26 may.
3. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni - Toshkent 1996 y. 30 avgust.
4. “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2008 yil 26 sentyabr.
5. Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Xalq so'zi» 1998 yil 9 fevral.
6. O'zR. Prezidentining “Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni. 2005 yil 6 oktyabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi ”Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida”gi PQ–615-sonli Qarori;
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 iyuldagi ”Auditorlik tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ–907-sonli Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 27 sentyabrdagi “Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–475-sonli Qarori;
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi “Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonalarning samarali boshqarilishini va davlat mulkini zarur darajada hisobga olinishini ta'minlash chora-tadbirlari

to'g'risida"gi 215-sonli Qarori;

11. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2002 yil 27 dekabrda "Moliyaviy hisobot shakllari va ularning to'ldirilishi bo'yicha qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" gi 140-sonli buyrug'i.

12. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan 5-sonli «Audit ishi sifatini nazorat qilish» nomli AFMS1999yil 4 avgust.

13. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. - T.: O'zbekiston, 2005.

14. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratishtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T.: O'zbekiston, 2005.

15. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi» gazetasi 2008 yil 9 fevral

16. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasi). – Xalq so'zi, 2009, 14 fevral.

17. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009.

18. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. - Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 29 yanvar.

19. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. –T. O'zbekiston. 2011.

20. I.A.Karimov “Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohatlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish” T.: O'zbekiston 2013 y. 64 bet.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar.

21. Барышников Н.П. Организация и методика проведение общего аудита. Учебное пособие. - М.: "Экономика" 2008. - 252.

22. Белоцерковский В.И. Бухгалтерский учет и аудит в коммерческом банке. Учебное пособие. - М.: "Экономика", 2007. - 294 стр.

23. Бровкина Н. Контроль и ревизия: Учеб. Пособие – М.: “ИНФРА – М”, 2010 г. – 346 стр.

24. Бровкина Н. Контроль и ревизия: Учеб. Пособие – М.: “ИНФРА – М”, 2010 г. – 346 стр.

25. Бюджетный контроль и аудит: Учебное пособие/ А.К.Ибрагимов., Сугирбаев Б.Б., - Ташкент, 2010 – 192 с.

26. Внутренний аудит и контроль финансово-хозяйственной деятельности организации: Практическое пособие /А. В. Евдокимова, И. Н. Пашкина. — М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2010. — 208 с.

27. Гетокова Л.М., Скородумов В.А., Чепик Н.А. Аудит и сопутствующие услуги: Учебное пособие. – СПб.: Изд-во СПбГУЭФ, 2010. -208 с.

28. Do'smuratov R.D.Audit. O'quv qo'llanma (I qism). / R.D. Do'smuratov, Sh. Fayziyev. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008. - 178 c

29. Do'stmuratov R.D. Audit. O'quv qo'llanma. (II qism)./ R.D. Do'stmuratov, Sh. Fayziyev. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008. - 256 c

30. Do'smuratov R.D. Audit asoslari. -T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2003.-612 b.

31. Жминько С. Внутренний аудит. – Ростов н/Д: “Феникс ”, 2008 г. –316 стр.
32. Jumaniyozov K. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash muammolari. -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, 2004.
33. Камышанов П.И. Бухгалтерская финансовая отчетность: Составление и анализ. Учебное пособие. - М.:ОМЕГА, 2005. - 246 стр.
34. Камышанов П.И. Современная бухгалтерия и аудит на предприятиях и в банках-М.: 2000.-380 с.
35. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi. –T.: “Sharq” NMAK, 2004. 592 b.
36. Ковалев В.В. Финансовая отчетность. Анализ финансовой отчетности. Учебное пособие. –М.: Проспект, 2005. 432 стр.
37. Ковалева О.В., Константинов Ю.П. «Аудит. Организация аудиторской деятельности. Методика проведения аудиторской проверки» М.: «ПРИОР» 1999 272с.
38. Палий В. Международные стандарты учета и финансовой отчетности. Учебное пособие. – М.: “ИНФРА – М” , 2009 г. – 512 стр.
39. Подольский В., Савин А. Сотникова Л. Международные и внутрифирменные стандарты аудиторской деятельности. Учебное пособие. – М.: “ИНФРА – М ”, 2010 г. – 302 стр.
40. Подольский В. Аудит. Учебник. – М.: Изд. Юрайт, 2010 г. – 605 стр.
41. Пугачев В.В. Внутренний аудит и контроль. Организация внутреннего аудита в условиях экономического кризиса. Учебник. – М.: “Дело и Сервис ”, 2010 г. – 224 стр.
42. Практический аудит. Учебное пособие / Под ред Н.Д. Бровкиной, М.В. Мельник. – М.: “ИНФРА – М ”, 2008 г. – 205 стр.

43. Парушина Н., Кыштымова Е. Аудит: основы аудита, технология и методика проведения аудиторских проверок. Учебное пособие. – М.: ИД “Форум”, 2009 г. - 560 стр.
44. Практический аудит/ С.М. Бычкова, Т.Ю. Фомина; под ред. С.М. Бычкова. – 3-е изд. перераб. и доп. – М.: Эксмо, 2009. -176 с. – (Настольная книга специалиста)
45. Рогуленко Т. М Основы аудита. Учебник. – М.: “МПСи”, 2010 г. -512 стр.
46. Рогуленко, Т. М. Аудит : учебник. — Изд. с изм. — М. : Экономистъ, 2005. — 383 с.
47. Суйц В. Аудит. Учебное пособие. – М.: “КНОРУС”, 2010 г. – 168 стр.
48. Суйц В. Аудит. Учебник. – М.: “Высшее образование”, 2007 г. –398 стр
49. Савин А.А., Савина А.А., Аудит налогообложение: Учебное пособие. – М.: Вузовский учебник, 2010. – 381 с.
50. Сотникова Л.В. Оценка состояния внутреннего аудита: Практическое пособие. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. - 144 стр.
51. Титов В.И. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности. Учебник. –М.: Дашков и К, 2005. 352 стр.
52. Tulaxodjaeva M.M. «Audit» (darslik). Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. Iqtisodiyot, 2010 y. – 456-b.

III. Internet saytlari

<http://www.iasc.org.uk>

<http://www.aicpa.org/index.htm>

<http://www. uza.uz>

<http://www.uzbekistan.uz>

<http://www.accountingweb.com>

<http://www. ziyonet. uz>

<http://www. mf. uz>

<http://www. tfi. uz>

<http://www.lex. uz>